



O'QUVCHILARNI
XALQARO TADQIQOTLARGA
TAYYORLASHGA MO'LJALLANGAN

AXBOROTNOMA 2

2020-№2

PISA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH DAVLAT INSPEKSIYASI

TA'LIM SIFATINI BAHOLASH BO'YICHA XALQARO TADQIQOTLARNI
AMALGA OSHIRISH MILLIY MARKAZI

O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga
tayyorlashga mo'ljallangan

AXBOROTNOMA

2

(Umumiy o'rta ta'lismuassasalarining aniq, tabiiy va filologiya fanlari
o'qituvchilari, soha mutaxassislari, 7-11-sinf, akademik litsey va
kasb-hunar ta'lismuassasalari o'quvchilari uchun mo'ljallangan
test topshiriqlari to'plami)



“Ta'lismifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish
milliy markazining matbaa bo'limi”

TOSHKENT — 2020

UO'K 37.014.6:001
KBK 74.00
T – 12

Fizika-matematika fanlari doktori, professor U.N.Tashkenbayevning umumiy tahriri ostida

Tuzuvchilar:

- A.A.Ismailov** – Ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi direktori – PISA xalqaro tadqiqoti milliy loyiha menejeri;
- X.J.Daminov** – Ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi direktori o'rinnbosari;
- N.A.Karimov** – Ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi bo'lim boshlig'i;
- G.O.Tog'ayeva** – Ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi bosh mutaxassisi;
- Q.K.Karimberdiev** – Ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi bosh mutaxassisi;
- Z.A.Kosimova** – Ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi bosh mutaxassisi.

Taqrizchilar:

- M.T.Ergasheva** – A.Avaliy nomidagi XTTRMXQTMOI "Pedagogika va psixologiya" kafedrasini mudiri, biologiya fanlari nomzodi, dotsent;
- R.M.Muxtorova** – Toshkent viloyati Piskent tumani 6-sonli umumiy o'rta ta'lif makkabining oliv toifali informatika va matematika fani o'qituvchisi.

Mazkur axborotnama (test topshiriqlari to'plami) Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development) tomonidan o'tkaziladigan PISA (The Programme for International Student Assessment) tadqiqoti doirasida foydalilanilgan materiallar asosida tuzilgan.

Unda o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy-ilmiy savodxonligi hamda kreativ fikrlashini baholashga mo'ljallangan topshiriqlar namunalari, ularni yechish bo'yicha tavsiyalar hamda baholash mezonlari keltirilgan.

Axborotnama (test topshiriqlari to'plami)dan umumiy o'rta ta'lif muassasalarining aniq, tabiiy va ona tili va adabiyot fanlari o'qituvchilari, umumiy o'rta ta'lif muassasalarining 7–11-sinf, akademik litsey va kasb-hunar ta'lif muassasalari o'quvchilari foydalanishlari mumkin.

Axborotnama O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ilmiy kengashining 2020-yil 21-dekabrdagi yig'ilish (10-son bayonnomasi) qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6960-0-6

UO'K 37.014.6:001
KBK 74.00

ISBN 978-9943-6960-0-6

© A. Ismailov va b.

MUNDARIJA

Kirish.....	4
Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash bo'yicha topshiriqlardan namunalar.....	7
1. Suv idishi	9
2. Rangli konfetlar	10
3. Tabiiy fanlardan testlar	10
4. Bahorgi ko'rgazma	11
5. Arg'imchoq.....	11
6. O'quvchilarning bo'ylari	12
7. Maydonga ko'ra to'lov	13
8. Kitob javoni.....	14
9. Chiqindi	14
10. Zilzila	15
11. Tanlovlar	15
12. Test natijalari	16
13. Bolalar poyabzali	16
14. Skeytbord	17
15. Stol tennisi musobaqasi.....	19
16. Mayoq	20
17. Karbonat angidrid gazi miqdorining kamayishi	22
18. Qayrilma bino	23
19. Daraja xossalari	27
20. Har doim, ba'zan, hech qachon.....	29
Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini baholash bo'yicha topshiriqlardan namunalar	31
1. Bioxilma-xillik	34
2. Labni yaltiratuvchi vosita.....	36
3. Semmelvays kundaligi.....	38
4. Transport vositalari.....	41
5. Ultratovush.....	42
6. Veneraning tranziti	44
7. Grand-Kanyon.....	46
Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash bo'yicha topshiriqlardan namunalar.....	49
1. Asalarilar.....	52
2. Telekommuting.....	55
3. Rapa Nui.....	57
Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning kreativ fikrlashini baholash bo'yicha topshiriqlardan namunalar.....	63
1.Kelajak velosipedi.....	67
2. Suvni tejash dasturi	71
Topshiriqlarning tavsifi, javoblari va ularni baholash mezonlari	
Matematik savodxonlikni baholashga mo'ljallangan topshiriqlar tavsifi, javoblari va ularni baholash mezonlari	75
Tabiiy-ilmiy savodxonlikka oid topshiriqlar tavsifi, javoblari va ularni baholash mezonlari.....	96
O'qish savodxonligini baholash bo'yicha topshiriqlarning tavsifi, javoblari va ularni baholash mezonlari	107
Kreativ fikrlashni baholash bo'yicha topshiriqlar tavsifi, javoblari va ularni baholash mezonlari	119

KIRISH

Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun yangilik bo‘lganligi, unda o‘quvchilar 2021 va 2022-yillarda ilk marotaba qatnashayotganliklari sababli, ushbu dasturlar haqida ta’lim muassasalari pedagoglari va o‘quvchilari, ta’lim tizimi xodimlari va ota-onalarning xabardorligini oshirish hamda tasavvurlarini boyitish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida PISA, PIRLS, TIMSS va TALIS kabi xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishga kirishilgan bo‘lib, ushbu Axborotnomadagi ma’lumot va materiallar PISA tadqiqotiga bag‘ishlanadi.

PISA – ingliz tilidagi “The Programme for International Student Assessment” so‘zlarining qisqartmasi bo‘lib, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan boshqariladigan dastur hisoblanadi. Unda umumiyligida o‘rtalik maxsus ta’lim muassasalardagi 15-16 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligi hamda kreativ fikrlash kompetensiyalari baholanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi O‘zbekistonda ushbu tadqiqotlarni tashkil etish, unda ta’lim muassasalari o‘quvchilarining ishtirokinini ta’minlashda vakolatli tashkilot hisoblanadi.

Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va uning huzuridagi Milliy markaz tomonidan xalqaro tadqiqotlarga oid ko‘plab targ‘ibot-tashviqot ishlari, shu jumladan o‘quv, uslubiy va didaktik materiallar, videomateriallar hamda davriy axborotnomalar muntazam ravishdta e’lon qilinmoqda.

Mazkur axborotnoma davriy nashrning 2-soni sifatida Milliy markaz tomonidan tayyorlangan va “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan 2020-yilda chop etilgan 1-sonli axborotnomaning mantiqiy davomi hisoblanadi.

Ushbu nashr mahsulotidagi materiallar PISA dasturining matematik, tabiiy-ilmiy va o‘qish savodxonligi hamda kreativ fikrlash yo‘nalishlariga oid ma’lumotlar asosida tayyorlangan bo‘lib, unda 2000–2015-yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlarda foydalananilgan topshiriqlar hamda 2022-yil uchun ilk marotaba ishlab chiqilgan topshiq namunalari, shuningdek, ularni baholash mezonlari keltirilgan.

Axborotnomada berilgan topshiriqlar o‘qituvchi va o‘quvchilarga PISA

tadqiqoti topshiriqlarining turlari, ularning berilish va bayon qilinish usullari, o‘ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurlarini boyitishga yordam beradi.

Ushbu axborotnomadan o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshirish, berilgan topshiriqlarni yechish orqali ularning ijodiy, mantiqiy, tanqidiy fikrlash va hayotiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini baholash va rivojlantirishga mo‘ljallangan materiallar o‘rin olgan bo‘lib, undan umumta’lim muassasalarida sinfdan tashqari va to‘garak mashg‘ulotlari davomida foydalanishning ahamiyati yuqori.

Har bir topshiriq guruhi bir yoki bir nechta savol va topshiriqlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ular oddiy bir yoki bir nechta to‘g‘ri javobli test, qisqa yoki mufassal javobli yopiq savol, shuningdek, mufassal javob berish lozim bo‘lgan ochiq topshiriq ko‘rinishda berilgan.

O‘qituvchilar mazkur topshiriqlardan o‘quvchilarning dars mavzusini mustahkamlash va takrorlash maqsadlarida darsdan tashqari to‘garak hamda fakultativ mashg‘ulotlarda foydalanishlari mumkin.

Shuni ta’kidlash lozimki, PISA topshiriqlari tuzilishiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular muayyan fan yoki mavzularga mos kelishni ko‘zda tutmaydi. Shunday bo‘lsada, ba’zi hollarda fanlarning qaysidir mavzusiga tegishli bo‘lishi yoki hech qaysi mavzuga mos kelmasligi ham mumkin. Ularni o‘rganayotgan vaqtda muayyan topshiriqqa oid tayanch bilimlarni faollashtirish muhim ahamiyatga ega.

PISA dasturining baholash materialari o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda qulay vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shunday ekan, ushbu Axborotnomada berilgan materiallardan foydalanishda o‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash bilan birga, o‘quvchilarning topshiriqlarni yechish uchun kerak bo‘ladigan ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq.

Kitobxonlar PISA va PIRLS dasturlari haqidagi tasavvurlarini yanada boyitish, qo‘srimcha ma’lumotlarga ega bo‘lish maqsadida Ta’lim inspeksiysi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tomonidan Xalq ta’limi vazirligi bilan hamkorlikda tayyorlangan hamda Sharq nashriyot matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan 2019-yilda nashrdan chiqarilgan qo‘llanmalar, ya’ni “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash”, “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash”, “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy

fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash”, “Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash” nomli metodik qo‘llanmalardan foydalanishlari mumkin.

Shuningdek, PISA tadqiqotlarining topshiriqlarini atroficha o‘rganish, tahlil qilish, shu topshiriqlarga o‘xhash yoki ularni yechishga yordam beradigan topshiriqlarni ishlab chiqishga qiziquvchi, ilmiy tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar uchun mazkur axborotnomadagi materiallar munosib manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, axborotnomada berilgan topshiriqlardan umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarining 7-11-sinf, akademik litsey va kasb-hunar ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘zlarining ta’lim muassasasida egallagan bilimlarini mustahkamlash, o‘zini sinab ko‘rish, mantiqiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida mustaqil ravishda foydalanishlari ham mumkin.

Axborotnomadagi materiallar xalqaro PISA tadqiqot dasturi doirasidagi manbalardan olinganligi sababli ayrim juz’iy kamchiliklardan xoli bo‘lmasligi mumkin.

Axborotnomani takomillashtirish bo‘yicha
takliflaringizni kutib qolamiz.

Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani,

Nurxon ko‘chasi, 21-uy.

e-mail: markaz@tdi.uz

XALQARO TADQIQOTLARDA O'QUVCHILARNING MATEMATIK SAVODXONLIGINI BAHOLASH BO'YICHA



TOPSHIRIQLARDAN NAMUNALAR

PISA

MATEMATIK SAVODXONLIK

Hozirgi vaqtida har bir insonning hayoti va kasbiy faoliyatida texnogen komponentning o'sishi kuzatilmoqda. Shuning uchun nafaqat kelajakdagi mutaxassisni, balki har bir maktab o'quvchisini to'laqonli matematik savodxonlik bo'yicha tayyorlashning ahamiyati ortib bormoqda. Matematikani o'qitishning maqsadlari ham kuchaytirilmoqda. Ular matematikaning o'ziga xos jihatlariga, fanni o'rganishni va amaliy qo'llanilishini ham rivojlantiradigan shaxsiy xususiyatlariga mos kelishi kerak. Matematik savodxonlikni o'rganish doimiy e'tiborni, qat'iyatni, diqqatni jamlay olish qobiliyatini talab qiladi, ya'ni aqlni rivojlantirishda ham, xarakterni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Chunki amaliy hayot uchun zarur bo'lgan hisoblash, geometrik tasvirlar, formulalar, funksiyalar, grafiklar, diagrammalar, jadvallar bilan bog'liq bilimlar uchun zarur bo'lgan materiallarni o'zlashtirish lozim. Demak, matematik savodxonlik – bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'llay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir.

Mazkur axborotnomada matematik savodxonlik bo'yicha berilgan topshiriqlar to'plami atrofdagi tabiatni, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni yechishga mo'ljallangan.

Axborotnomaning matematik savodxonlik bo'limi 20 ta topshiriqdan iborat bo'lib, berilgan topshiriqlarda savollar to'g'risidagi ma'lumot ya'ni matematikaga oid mazmun sohasi, konteksti, aqliy faoliyat turi bilan taqsimlangan, topshiriqlarning javoblari va baholash mezonlari berilgan. Bu topshiriqlar o'quvchilar bilimini mustahkamlash va rivojlantirish uchun foydali va qiziqarli manba sifatida xizmat qiladi.

Axborotnoma navbatdagi ikkinchi kitob bo'lib, u birinchi kitobning davomi sifatida taqdim etilmoqda. Ma'lumotlar va vazifalar "oddiydan murakkabga" mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilgan.

E'tiboringizga havola qilinayotgan ushbu axborotnomadagi matematik savodxonlik bo'yicha berilgan masalalarning natijalari sizga oson o'rganishga va uning sirlarini ochishga muhim ko'makchi bo'ladi.

1. SUV IDISHI




1-savol. Suv idishi






Suv idishi chizmada ko'rsatilganidek, ma'lum shakl va o'lchamga ega.

Boshida suv idishi bo'sh edi. Keyin, u sekundiga bir litr tezlikda suv bilan to'ldiriladi.

Quyidagi grafiklarning qaysi birida idishdagi suv sathi balandligining vaqt o'tishi bilan o'zgarishi ko'rsatilgan?



Suv idishi




2. RANGLI KONFETLAR



1-savol. Rangli konfetlar

Ravshanning onasi unga xaltachadan bir dona konfet olishiga ruxsat beradi. U konfetlarni ko'ra olmaydi. Xaltachadagi har bir rangli konfetlar soni quyidagi diagrammada ko'rsatilgan.



Ravshanning qizil konfetni olish ehtimoli qancha?

- A) 10%
- B) 20%
- C) 25%
- D) 50%

3. TABIIY FANLARDAN TESTLAR



1-savol. Tabiiy fanlardan testlar

Malikaning muktabidagi tabiiy fan o'qituvchisi o'quvchilarga har biri 100 ball bilan baholanadigan testlar beradi. Malika o'zining dastlabki to'rtta testi uchun o'rtacha 60 ball to'pladi. Beshinchi testda esa u 80 ball to'pladi.

Malikaning tabiiy fanlar bo'yicha beshta testdan to'plagan o'rtacha bali qancha?



O'rtacha ball:

4. BAHORGI KO'RGAZMA



1-savol. Bahorgi ko'rgazma

Bahorgi ko'rgazmadagi o'yinlarning birida, o'yinchi avval barabanni aylantiradi. Agar baraban ko'rsatkichi juft sonda to'xtasa, o'yinni davom ettirish uchun o'yinchi xaltachadagi marmar soqqalardan birini tanlaydi. Quyidagi diagrammada baraban va xaltachadagi marmar soqqalar ko'rsatilgan.



O'yinchi qora marmar soqqachani tanlasagina, mukofotni qo'lga kiritadi. Shoira shu o'yinni bir marta o'ynaydi. Shoiraning mukofot yutib olish ehtimoli qanday?

- A) Imkoniyatga ega emas.
- B) Ehtimoli ko'p emas.
- C) Ehtimoli taxminan 50%.
- D) Ehtimoli juda katta.
- E) Aniq.


5. ARG'IMCHOQ



1-savol. Arg'imchoq

Muhammad arg'imchoqda o'tiribdi. U arg'imchoqda uchishni boshladi. U imkoni boricha yuqoriga ko'tarilishga harakat qilmoqchi.

Quyidagi qaysi chizmada uning oyoqlarining yerdan ko'tarilish balandligi yaxshiroq tasvirlangan?



6. O'QUVCHILARNING BO'YLARI



1-savol. O'quvchilarning bo'yłari



Bir kuni matematika darsida sinfdagi barcha o'quvchilarning bo'yłari o'lchandi. O'g'il bolalarning o'rtacha bo'yı 160 cm, qiz bolalarning o'rtacha bo'yı esa 150 cm chiqdi. Sinfdagı eng bo'yı baland - Azizaning bo'yı 180 cm edi. Sinfdagı eng bo'yı past - Zafarning bo'yı 130 cm edi.

O'sha kuni ikki o'quvchi darsga kelmadı, ammo ular keyingi kuni darsga kelishdi. O'qituvchi ularning bo'yłarini ham o'lchadi va o'quvchilarning o'rtacha bo'yłarini qaytadan hisoblab chiqdi. Hayratlanarlisi shundan iboratki, sinfdagi o'g'il va qiz bolalarning o'rtacha boy'lari o'zgarmadi.

Mazkur ma'lumotdan quyidagi qanday xulosaga kelish mumkin?

Har bir xulosa uchun "Ha" yoki "Yo'q" javobini belgilang.

Xulosa	Shu mulohaza to'g'rimi?
Har ikkala o'quvchilar qiz bolalar.	Ha / Yo'q
O'quvchilardan biri qiz, ikkinchisi esa o'g'il bola.	Ha / Yo'q
Har ikkala o'quvchining bo'yłari bir xil.	Ha / Yo'q
Barcha o'quvchilarning o'rtacha bo'yı o'zgarmadi.	Ha / Yo'q
Eng bo'yı past Zafarning bo'yı.	Ha / Yo'q

7. MAYDONGA KO‘RA TO‘LOV

Ko‘p qavatli uyda yashovchi xonadon egalari uyni sotib olishga qaror qilishdi. Uy sotib olish uchun pul yig‘ishda har bir xonadon egalari o‘zлari yashayotgan xonadonning o‘lchamiga proporsional ravishda pul berishga qaror qilishdi. Masalan, butun bir ko‘p qavatlari uyning beshdan bir qismini egallovchi xonadonda yashaydigan inson binoning umumiy narxining beshdan birini to‘laydi.



1-savol. Maydonga ko‘ra to‘lov

Quyida berilgan mulohazalar uchun “To‘g‘ri” yoki “Noto‘g‘ri” javobini tanlang.

Mulohaza	To‘g‘ri / Noto‘g‘ri
Eng katta maydonga ega xonadon egasi eng kichik maydonga ega xonadon egasiga qaraganda xonadonining har bir m^2 uchun ko‘proq pul to‘laydi.	To‘g‘ri / Noto‘g‘ri
Agar ikkala xonadon maydoni va ulardan birining narxini bilsak, ikkinchisining narxini hisoblashimiz mumkin.	To‘g‘ri / Noto‘g‘ri
Agar binoning narxi va har bir xonadon egasi qancha to‘la-shini bilsak, ko‘p qavatli binoning umumiy maydonini hisoblash mumkin.	To‘g‘ri / Noto‘g‘ri
Agar binoning umumiy narxi 10 foizga kamaytirilganda, har bir xonadon egasi 10 foiz kam to‘lagan bo‘lar edi.	To‘g‘ri / Noto‘g‘ri



2-savol. Maydonga ko‘ra to‘lov

Ko‘p qavatli uyda uchta xonadon bor. Eng katta 1-xonadonning umumiy maydoni $95 m^2$. 2- va 3-xonadonlarning maydonlari mos ravishda $85 m^2$ va $70 m^2$. Uyning sotilish narxi 300000 zed. 2-xonadon egasi qancha to‘laydi? Masalaning yechilish tartibini ko‘rsating.


8. KITOB JAVONI



1-savol. Kitob javoni

Duradgorga bir komplekt kitob javonini yasashi uchun unga quyidagi detallar kerak bo'ladi?

- 4 ta uzun yog'och taxta;
- 6 ta qisqa yog'och taxta;
- 12 ta kichik mustahkamlovchi qism;
- 2 ta katta mustahkamlovchi qism;
- 14 ta shurup.



Duradgorda 26 ta uzun yog'och taxta, 33 ta qisqa yog'och taxta, 200 ta kichik mustahkamlovchi qism, 20 ta katta mustahkamlovchi qism va 510 ta shurup bor.

Duradgor necha komplekt kitob javoni yasashi mumkin?

Javob: _____

9. CHIQINDI



1-savol. Chiqindi

Atrofimizdagi olam fanidan uy vazifasini bajarish uchun o'quvchilar odamlar tomonidan tashlanadigan turli xil chiqindilarning chirish vaqtiga oid ma'lumotlar to'pladi:

Chiqindi turi	Chirish muddati
Banan po'stlog'i	1 yildan 3 yilgacha
Apelsin po'stlog'i	1 yildan 3 yilgacha
Karton qutilar	0,5 yil (6 oy)
Saqich	20 yildan 25 yilgacha
Gazetalar	Bir necha kun
Polistirol finjonlar	100 yildan ortiq muddatda

O'quvchi ma'lumotlarni ustunli diagrammada aks ettirishni xohladi.

Bunday ma'lumotlarni ustunli diagrammada aks ettirish mumkin emasligi sabablaridan birini ayting.

10. ZILZILA



1-savol. Zilzila

Zilzila va zilzilalarning qanchalik tez-tez sodir bo'lishi haqida hujjatli film ko'rsatildi.

Unda zilzilalarning sodir bo'lishini bashorot qilish muhokama qilingan.

Hujjatli filmda geolog shunday deydi: "Kelasi yigirma yil ichida, Zed shahrida zilzila sodir bo'lish ehtimoli uchdan ikkiga teng".

Quyidagi mulohazalardan qaysi biri geolog fikrini to'g'ri aks ettiradi?



- A) $\frac{2}{3} \cdot 20 = 13,3$, shuning uchun kelasi 13 va 14 yil ichida Zed shahrida zilzila sodir bo'ladi.
- B) $\frac{2}{3}$ soni $\frac{1}{2}$ dan katta, shuning uchun kelasi 20 yil ichida Zed shahrida ma'lum muddat mobaynida zilzila sodir bo'lishini ko'rish mumkin.
- C) Kelasi 20 yil ichida Zed shahrida ma'lum muddat mobaynida zilzila sodir bo'lish ehtimoli zilzila sodir bo'lmaslik ehtimolidan katta.
- D) Siz nima sodir bo'lishini aniq ayta olmaysiz, chunki hech kim qachon zilzila bo'lishini avvaldan aytib bera olmaydi.

11. TANLOVLAR



1-savol. Tanlovlар

Pitsa sotadigan restoranda ikki turdag'i pitsa xariq qilishingiz mumkin: pishloqli va pomidorli pitsa. Bundan tashqari, pitsaga qo'shimcha masalliqlar ham qo'shtirishingiz mumkin. Sizga tanlash uchun to'rtta masalliq turi taklif etiladi: zaytun, go'sht, qo'ziqorin va kolbasa.

Roziya ikki xil qo'shimcha masalliqli pitsa buyurishni xohladi.

Roziyada tanlash uchun necha xil kombinatsiya mavjud?

Javob: _____ kombinatsiya.

12. TEST NATIJALARI




1-savol. Test natijalari

Quyidagi ustunli diagrammada A va B guruhlarning tabiiy fan bo'yicha topshirgan test natijalari ko'rsatilgan.

A guruhning o'rtacha test natijasi 62,0 ball, B guruhning o'rtacha test natijasi esa 64,5 ball. O'quvchi 50 yoki undan ortiq ball to'plagan bo'lsa, testdan o'tgan hisoblanadi.

Test natijalari



Diagrammaga qarab, o'qituvchi B guruh o'quvchilari testlarni A guruhga qaraganda yaxshiroq yechganini ta'kidladi.

A guruh o'quvchilari o'qituvchining fikriga qo'shilmadi. Ular o'qituvchiga B guruh o'quvchilari har doim ham yaxshiroq natija ko'rsatishi mumkin emasligini aytdi.

Diagrammadagi ma'lumotdan foydalaniib, A guruh o'quvchilari o'z fikrlarini tasdiqlashi uchun qanday matematik mulohaza bergenini aytинг.

13. BOLALAR POYABZALI

Quyidagi jadvalda Zedlandiyada ishlab chiqarilgan poyabzal o'lchamlarining oyoq o'lchamlariga mosligi ko'rsatilgan.

Zedlandiyada ishlab chiqarilgan bolalar poyabzallarining o'chamlaridagi farqni ko'rsatuvchi jadval:



...dan (mm)	...gacha (mm)	Poyabzal o'lchami
107	115	18
116	122	19
123	128	20
129	134	21
135	139	22
140	146	23
147	152	24
153	159	25
160	166	26
167	172	27
173	179	28
180	186	29
187	192	30
193	199	31
200	206	32
207	212	33
213	219	34
220	226	35
213	219	34



1-savol. Bolalar poyabzali

Malikaning oyoq o'lchami 163 mm. Jadvaldan foydalanib, Malikaga Zedlandiyada ishlab chiqarilgan qaysi o'lchamdagagi poyabzal to'g'ri kelishini toping.

Javob: _____

14. SKEYTBORD

Elyor skeytbordning ajoyib ishqibozidir. U ba'zi tovarlarning narxini bilish uchun tez-tez “Konkichilar” deb nomlangan do'konga borib turadi. Mazkur do'kondan siz tayyor skeytbord sotib olishingiz mumkin. Bundan tashqari, siz skeytbord doskasini, 4 dona g'ildirak, 2 dona telejka va mustahkamlovchi qismlarni sotib olib, o'zingiz skeytbord yasashingiz mumkin.

Do'kondagi ushbu mahsulotlarning umumiylar narxi:

Mahsulot	Mahsulot narxi (zedda)	
Tayyor skeytbord	82 yoki 84	
Skeytbord doskasi	40, 60 yoki 65	
4 dona g'ildirak	14 yoki 36	
2 dona telejka	16	
Mustahkamlovchi qismlar (podshipniklar, rezina yostiqcha, bolt va gaykalar)	10 yoki 20	



1-savol. Skeytbord

Elyor skeytbord qismlarini sotib olib, uni o'zi mustaqil skeytbord yig'moqchi. Do'konda sotiladigan yig'ilishi mumkin bo'lgan skeytbord qismlarining minimal va maksimal narxi qancha?

- (a) minimal narxi: zed.
- (b) maksimal narxi :..... zed.



2-savol. Skeytbord

Do'konda uch xil doska, ikki xil g'ildirak va ikki xil mustahkamlovchi qismlar sotiladi. Telejkalardan faqat bittasini tanlash imkonи bor.

Bulardan foydalanib, Elyor necha dona skeytbord yasay oladi?

- A) 6
- B) 8
- C) 10
- D) 12



3-savol. Skeytbord

Elyorning 120 zed puli bor va u do'kondagi eng qimmat skeytbordni sotib olmoqchi.

Elyor skeytbordning har to'rtala qismi uchun qancha to'lashi kerak? Javobingizni quyidagi jadvalga yozing.

Skeytbord qismi	Pul miqdori (zed)
Doska	
G'ildirak	
Telejka	
Mustahkamlovchi qism	

15. STOL TENNISI MUSOBAQASI




1-savol. Stol tennisini musobaqasi

Tolib, Ravshan, Baxtiyor va Davron stol tennisini musobaqasiga tayyorgarlik ko'rish uchun mashg'ulot o'yinlarini tashkillashtirdi. Ushbu mashg'ulot o'yinlarida har bir o'yinchchi boshqa o'yinchchi bilan faqat bir marta o'ynashi mumkin.

Mazkur mashg'ulot o'yinlari uchun ular ikkita mashg'ulot jadvalini tuzdi.

Quyidagi jadvalga har bir o'yinda ishtiroy etuvchi o'yinchilar ismini yozing.




	1-mashg'ulot stoli	2-mashg'ulot stoli
1-davra o'yini	Tolib – Ravshan	Baxtiyor – Davron
2-davra o'yini		
3-davra o'yini		

16. MAYOQ

Mayoq – yuqori qismiga yo'l ko'rsatuvchi chiroq o'rnatilgan minora. Mayoqlar dengiz qirg'og'iga yaqin suzayotgan kemalarga tunda yo'l topib olishlariga yordam beradi.

Mayoq chirog'i muntazam belgilangan tartibda nur sochadi. Har bir mayoq uchun o'ziga xos ma'lum tartib belgilangan. Quyidagi chizmada odatiy mayoqning nur sochish tartibi ko'rsatilgan.



Mayoqdan taralayotgan yorug'lik bilan birligida, chiroqning o'chib, qorong'ulashish davri ham mavjud.

Bu odatiy holat. Biroz vaqt o'tgach, diagramma o'zini takrorlaydi. Diagrammaning takrorlanishi boshlanmasdan avvalgi to'liq bir sikli uchun ketgan vaqt davr deb ataladi. Biror naqsh davrini topsangiz, diagrammani keyingi sekundlar yoki daqiqalar yoki hatto soatlab uzaytirish oson.



1-savol. Mayoq

Quyidagilardan qaysi biri mazkur mayoq chirog'inining o'chib-yonish davrini ko'rsatadi?

- A) 2 sekund.
- B) 3 sekund.
- C) 5 sekund.
- D) 12 sekund.



2-savol. Mayoq


Mayoq 1 minutda qancha yorug'lik chiqaradi?

- A) 4
- B) 12
- C) 20
- D) 24



3-savol. Mayoq


Quyidagi diagrammada mayoqning 1 minut mobaynida 30 sekund nur taratib turish tartibida ko'rsating. Mayoqning o'chib-yonib turish davri 6 sekundga teng bo'lishi kerak.



17. KARBONAT ANGIDRID GAZI MIQDORINING KAMAYISHI

Ko'pchilik olimlar atmosferada karbonat angidrid gazi miqdorining ko'payishi iqlim o'zgarishiga sababchi bo'lishini ta'kidlamoqda.

Quyidagi diagrammada ba'zi mamlakatlarda 1990 yilda (oq ustunda berilgan) va 1998 yilda (qizil ustunda berilgan) karbonat angidrid gazi miqdori qancha bolgani hamda 1990 va 1998 yillarda gaz miqdoridagi foizli o'zgarishlar (foizi o'q belgi bilan) ko'rsatilgan.



1-savol. Karbonat angidrid gazi miqdorining kamayishi

Diagrammadan ko'rilib turibdiki, AQSHda karbonat angidrid miqdori 1990 yildan 1998 yilgacha 11 foizga oshgan.

"11 foiz" javobi qanday aniqlanganini hisoblab ko'rsating.



2-savol. Karbonat angidrid gazi miqdorining kamayishi

Munavvar diagrammani tahlil qildi va zaharli gaz miqdoridagi foizli o'zgarishda xatolikni aniqladi: "Germaniyada foizli kamayish (16%) butun Yevropa Ittifoqidagi (4%) foizli kamayishdan kattaroq bo'lgan. Bunday bo'lishi mumkin emas, chunki Germaniya Yevropa Ittifoqiga (YI) a'zo mamlakat hisoblanadi."

Munavvarning mulohazasiga qo'shilasizmi? Javobingizni tushuntiring.



3-savol. Karbonat angidrid gazi miqdorining kamayishi





Munavvar va Nodir qaysi mamlakatda (yoki hududda) karbonat angidrid miqdori eng ko'p bo'lganini muhokama qildi.

Diagrammaga asoslanib, ikkalasi ham har xil xulosaga keldi.

Mazkur savolga ikkita to'g'ri javob bering va javobingizni tushuntiring.

18. QAYRILMA BINO

Zamonaviy binokorlikda, odatda, binolar g'ayrioddiy uslubda quriladi. Quyidagi chizmada "qayrilma binoning" elektron modeli va bino birinchi qavatining chizma rejasi ko'rsatilgan. Yoysimon belgilar



binoning joylashuvini ko'rsatadi.

Binoning birinchi qavatida asosiy kirish zali va do'konlar uchun ajratilgan xona mavjud. Birinchi qavat tepasida esa xonalardan tashkil topgan, 20 qavat joylashgan.


Har bir qavatning rejasi birinchi qavat rejasi bilan bir xil chizilgan, ammo har bir qavat quyidagi qavatdan biroz qiyshaytirib qurilgan. Bino markazida joylashgan silindrsimon qismda lift shaxtasi va har bir qavat platformasi joylashgan.




1-savol. Qayrilma bino

Binoning umumiy balandligini metrda topping. Javobingizni tushuntiring.

Quyidagi chizmada qayrilma binoning yon tomonidan tushirilgan tasviri berilgan.



1-yon tomonning ko'rinishi



2-yon tomonning ko‘rinishi



2-savol. Qayrilma bino

1-yon tomonning ko‘rinishi qaysi tomondan suratga olingan?

- A) Shimol tomondan.
- B) G‘arb tomondan.
- C) Sharq tomondan.
- D) Janub tomondan.



3-savol. Qayrilma bino

2-yon tomonning ko‘rinishi qaysi tomondan suratga olingan?

- A) Shimoliy-g‘arb tomondan.
- B) Shimoliy-sharq tomondan.
- C) Janubiy-g‘arb tomondan.
- D) Janubiy-sharq tomondan.




4-savol. Qayrilma bino

Xonalardan tashkil topgan har bir qavat birinchi qavatga qaraganda ma'lum darajada “bukilgan”. Eng yuqorigi qavat (birinchi qavat bilan yigirmanchi qavat) birinchi qavatga nisbatan to'g'ri (perpendikular) burchak hosil qiladi.

Quyidagi chizmada birinchi qavat tasviri aks ettirilgan.

Yuqoridagi chizmaga birinchi qavat tepasida joylashgan 10-qavatning rejasini chizing va birinchi qavatga nisbatan mazkur qavatning qanday joylashganini ko'rsating.



19. DARAJA XOSSALARI

PISA

Daraja xossalari

Kirish

Kirishni o'qing.

*So'ngra, "KEYINGISI"
tugmasini bosing*

Aynan biron son bilan takroriy ko'paytirishni amalga oshirayotganda, bajarayotgan amalingizni umumlashtirish uchun daraja belgisidan foydalanishingiz mumkin.

Masalan:

$$8 \cdot 8 \cdot 8 \cdot 8 = 8^4$$

(to'rtta 8 ko'paytirildi)

va

$$7 \cdot 7 \cdot 7 \cdot 7 \cdot 7 \cdot 7 = 7^6$$

(oltita 7 ko'paytirildi)

PISA

Daraja xossalari

Savol 1/3

O'ng tomondagi "Daraja xossalari"ga qarang. Mulohazalarning har bir uchun "To'g'ri" yoki "Noto'g'ri" tanlovini belgilang.

Mulohaza	to'g'ri	no-to'g'ri
8^{16} soni 8^{15} sonidan 8 barobar katta	<input type="radio"/>	<input checked="" type="radio"/>
8^{10} soni 8 sonidan 10 barobar katta	<input checked="" type="radio"/>	<input type="radio"/>

Daraja xossalari

Aynan biron son bilan takroriy ko'paytirishni amalga oshirayotganda, bajarayotgan amalingizni umumlashtirish uchun daraja belgisidan foydalanishingiz mumkin.

Masalan:

$$8 \cdot 8 \cdot 8 \cdot 8 = 8^4$$

(to'rtta 8 ko'paytirildi)

va

$$7 \cdot 7 \cdot 7 \cdot 7 \cdot 7 \cdot 7 = 7^6$$

(oltita 7 ko'paytirildi)

Daraja xossalari

Savol 2/3

O'ng tomondagi "Daraja xossalari"ga qarang. Savolga javob berish uchun tanlovnini bosing.

$$(-5)^{43} + (-1)^{43} + 5^{43}$$

Yuqoridagi ifodaning qiymati nimaga teng

- 1
- 1
- 0
- 5

Daraja xossalari

Aynan biron son bilan takroriy ko'paytirishni amalga oshirayotganda, bajarayotgan amalingizni umumlashtirish uchun daraja belgisidan foydalanihingiz mumkin.

Masalan:

$$8 \cdot 8 \cdot 8 \cdot 8 = 8^4$$

(to'rtta 8 ko'paytirildi)

va

$$7 \cdot 7 \cdot 7 \cdot 7 \cdot 7 \cdot 7 = 7^6$$

(oltita 7 ko'paytirildi)

Daraja xossalari

Savol 3/3

O'ng tomondagi "Daraja xossalari"ga qarang. Savolga javob berish uchun tanlovnini bosing.

7^{10} sonining oxirgi raqami nechaga teng?

- 1
- 3
- 7
- 9

Daraja xossalari

7 raqamining dastlabki to'qqizta darajalari quyida keltirilgan.


Ularning qanchalik tez o'sayotganiga e'tibor bering!

Ushbu sonlarning oxirgi raqamlari biron qoida yoki qonuniyatga mos keladi. Savolga javob berish uchun qonuniyatni o'rganing.

$7^1 =$	7
$7^2 =$	49
$7^3 =$	343
$7^4 =$	2 401
$7^5 =$	16 807
$7^6 =$	117 649
$7^7 =$	823 543
$7^8 =$	5 764 801
$7^9 =$	40 353 607

20. HAR DOIM, BA'ZAN, HECH QACHON

PISA



Har doim, ba'zan, hech qachon Kirish

*Kirishni o'qing. So'ngra,
"KEYINGISI" tugmasini bosing.*

Har doim, ba'zan, hech qachon

Umuman olganda odamlarning mulohazalarini uchta turli toifaga guruhlash mumkin:

Har doim to'g'ri bo'lgan mulohazalar;
Ba'zan to'g'ri bo'lgan mulohazalar; va
Hech qachon to'g'ri bo'lмаган mulohazalar.

Mulohaza:

«4 ga bo'linadigan son 2 ga ham bo'linadi»

Har doim to'g'ri, chunki 2 soni 4 ning bo'lувчиси.

Mulohaza:

«9 ga bo'linadigan son 6 ga ham bo'linadi»

Ba'zan to'g'ri. Masalan, 36 soni 9 ga ham, 6 ga ham bo'linadi, ammo 27 soni 9 ga bo'linib, 6 ga bo'linmaydi.

Mulohaza:

«Ikkita toq sonning yig'indisi toq son bo'ladi»

Hech qachon to'g'ri emas, chunki ikkita toq sonning yig'indisi har doim juft son bo'ladi.

PISA



Har doim, ba'zan, hech qachon Savol 1/3

Har bir mulohazaning har doim to'g'ri yoki ba'zan to'g'ri ekanligini, yoki hech qachon to'g'ri emasligini belgilang.

Mulohaza	Har doim to'g'ri	Bazan to'g'ri	Hech qachon to'g'ri emas
14 yoshli qiz bola hech bo'lмаганда hayotida bir marta hozirgi bo'yining yarmiga teng bo'lgan.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
14 yoshli qiz bolaning bo'yisi 10 yoshli qiz bolanining bo'yidan uzunroq.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>

Har doim, ba'zan, hech qachon

Umuman olganda odamlarning mulohazalarini uchta turli toifaga guruhlash mumkin:

Har doim to'g'ri bo'lgan mulohazalar;
Ba'zan to'g'ri bo'lgan mulohazalar; va
Hech qachon to'g'ri bo'lмаган mulohazalar.

Mulohaza:

«4 ga bo'linadigan son 2 ga ham bo'linadi»

Har doim to'g'ri, chunki 2 soni 4 ning bo'lувчиси.

Mulohaza:

«9 ga bo'linadigan son 6 ga ham bo'linadi»

Ba'zan to'g'ri. Masalan, 36 soni 9 ga ham, 6 ga ham bo'linadi, ammo 27 soni 9 ga bo'linib, 6 ga bo'linmaydi.

Mulohaza:

«Ikkita toq sonning yig'indisi toq son bo'ladi»

Hech qachon to'g'ri emas, chunki ikkita toq sonning yig'indisi har doim juft son bo'ladi.

Har doim, ba'zan, hech qachon

Savol 2/3

Har bir mulohazaning har doim to'g'ri yoki ba'zan to'g'ri ekanligini, yoki hech qachon to'g'ri emasligini belgilang.

Mulohaza	Har doim to'g'ri	Bazan to'g'ri	Hech qachon to'g'ri emas
Butun sonning o'zini o'ziga ko'paytirganda natija juft son bo'ladi.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
Butun sonning ikkilangani juft son bo'ladi.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
Toq sonning yarmi butun son bo'ladi	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
$3x + 1 = \frac{6x + 2}{2}$ 	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
A shaklning perimetri B shaklning perimetridan katta.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
Agar tanga 50 marta yerga tashlansa, u gerbli tomoni bilan 25 marta yerga tushadi.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>

Har doim, ba'zan, hech qachon

Savol 3/3

Quyidagi mulohazalarning har biri ba'zan to'g'ri.

Mulohazalarning har biri qachon to'g'ri va qachon noto'g'ri bo'lishiga misol keltiring.

Mulohaza	Mulohaza qachon to'g'ri bo'lishiga misol	Mulohaza qachon noto'g'ri bo'lishiga misol
Tangalarining soni eng ko'p bo'lgan odam eng ko'p pulga ega.		
$A - B = B - A$		
Agar kasrning surat va maxrajiga bir xil sonni qo'shsak, kasrning qiymati oshadi.		

XALQARO TADQIQOTLARDA O'QUVCHILARNING TABIIY-ILMIY SAVODXONLIGINI BAHOLASH BO'YICHA



**TOPSHIRIQLARDAN
NAMUNALAR**

PISA

TABIIY-ILMIY SAVODXONLIK

PISA tadqiqotining tabiiy fanlar yo'nalishida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi baholanadi.

Tabiiy-ilmiy savodxonlik deganda shaxsning tabiiy fanlarga oid tushunchalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog'liq muammoli vaziyatlarni hal qila olishi tushuniladi.

Tabiiy-ilmiy savodxon bo'lgan shaxsda quyidagi kompetensiyalar shakllangan bo'ladi:

- hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish;
- ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash;
- ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish.

PISA tadqiqotida muntazam ishtirok etib, yuqori natijalarga erishib kelayotgan Singapur davlatida tabiiy yo'nalishdagi fanlarni o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish etib belgilangan. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish va rivojlantirish uchun tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyalarining ko'nikmalarini tarkib toptirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyalari bir qator ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Jumladan, hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasiga quyidagi ko'nikmalar kiradi:

- tabiiy yo'nalishdagi fanlardan tegishli bilimlarni yodga olish va ulardan foydalanish;
- izohlovchi modellar va tasvirlarni anglash, yaratish va ulardan foydalanish;
- tegishli prognozlar qilish va asoslash;
- izohlovchi farazlarni taklif etish;
- ilmiy bilishning jamiyat uchun amaliy ahamiyatini tushuntirish.

Ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyasiga oid ko'nikmalar quyidagilardir:

- berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usullarini baholash;
- ma'lumotlarning obyektivligi va ishonchliligin ta'minlashda olimlar tomonidan qo'llaniladigan usullarni tavsiflash va baholash;
- ilmiy tadqiq etilishi mumkin bo'lgan savollarni farqlash;
- berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usulini taklif etish;
- berilgan ilmiy tadqiqotda o'rganilayotgan muammoni aniqlash.

Ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasiga oid ko'nikmalar quyidagicha:

- ma'lumotlarni tahlil va talqin qilish hamda tegishli xulosalar

chiqarish;

• ma'lum bir ko'rinishdagi ma'lumotlarni boshqa ko'rinishda ifodalash;

• ilmiy dalil va nazariyalarga asoslangan mulohazalarni ilmiy bo'lмаган qarashlardan farqlay olish;

• ilmiy adabiyotlardan olingan matnlardagi faraz, dalil va xulosalarni aniqlash;

• turli manbalar (masalan, gazeta, jurnal, Internet)dan olingan ilmiy mulohaza va dalillarni baholash.

O'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish uchun quyidagi bilimlar zarur:

• fizik sistemalar (fizika va kimyo fanlari), tirik sistemalar (biologiya fani), Yer va fazo sistemalari (geografiya, geologiya, astronomiya)ga oid **fanlarning mazmunini bilish**;

• ilmiy ma'lumot (bilim)lar olish uchun qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari, shuningdek, standart tadqiqot jarayonlarini bilishga doir **metodologik bilimlar**;

epistemik bilimlar, ya'nibizning ilmiy tasavvurlarimiz ilmiy tadqiqot metodlari imkoniyatlarini tushunishimiz natijasi ekani, shuningdek, faraz, gipoteza va kuzatish kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini bilish.

PISA topshiriqlarida ifodalangan real, hayotiy muammoli vaziyatlar mansub bo'lgan mavzu sohasi (kontekst) quyidagilarni qamrab oladi: salomatlik, tabiiy resurslar, atrof-muhit, xavf-xatar, ilm-fan va texnologiya sohasidagi yangi bilimlar. O'z navbatida, kontekstlar uchta darajada bo'ladi: shaxsiy, mahalliy/milliy, global. Shaxsiy darajadagi kontekstlar o'quvchi, uning oilasi, o'rtoqlari bilan bog'liq muammoli vaziyatlarni aks ettirsa, mahalliy/milliy darajadagi kontekstlar biror mamlakat, hududga aloqador bo'ladi.

Shuningdek, o'quvchilarning tabiiy fanlarga bo'lgan munosabati (tabiiy fanlarga qiziqishi, tadqiq etilayotgan masalaga ilmiy yondashuv, atrof-muhit bilan bog'liq masalalardan xabardorlik) ularda tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim sanaladi.

Axborotnomaning mazkur sonidan o'rin olgan PISA topshiriqlari yordamida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyalarini baholash mumkin. O'quvchilar hayotiy muammoli vaziyatlarga asoslangan bunday savollarga javob berishlari uchun fanning mazmuniga oid bilimlar, metodologik va epistemik bilimlarga ega bo'lishlari zarur.

1. BIOXILMA-XILLIK

Quyidagi gazeta maqolasini o'qing va savollarga javob bering.


BIOXILMA-XILLIK ATROF-MUHITNI BOSHQARISHDA MUHIMDIR

Bioxilma-xilligi yuqori (ya'ni har xil tirik mavjudotlardan iborat) bo'lgan ekosistema odamlar ta'sirida yuzaga kelgan atrof-muhit o'zgarishlariga bioxilma-xilligi kam bo'lgan ekosistemaga qaraganda moslashuvchanligi yuqoriroq bo'ladi.

Rasmda keltirilgan ikkita oziq to'rini ko'rib chiqing. Ko'rsatkichli chiziqlar oziqa bo'ladigan organizmdan u bilan oziqlanadigan organizmga ishora qiladi. Ushbu oziq to'rlari haqiqiy ekosistemlardagi oziq to'rlariga nisbatan juda sodda, ammo shunday bo'sada, ular xilma-xilligi ko'proq va xilma-xilligi kamroq bo'lgan ekosistemalar orasidagi asosiy farqni namoyish etadi.

B oziq to'ri biologik xilma-xilligi nihoyatda kam bo'lgan holatni ifodalaydi, bunda oziq zanjirining ba'zi darajalari organizmning faqat bitta turini o'z ichiga oladi. A oziq to'ri oziqlanishning muqobil yo'llari ko'proq bo'lganligi sababli xilma-xilligi ko'proq bo'lgan ekosistemani ifodalaydi.

Umuman olganda, bioxilma-xillikning yo'qolishiga jiddiy e'tibor
A OZIQ TO'RI **B OZIQ TO'RI**



qaratilishi kerak, chunki kelajakda organizmlarning yo‘q bo‘lib ketishi ham ma’naviy ham moddiy jihatdan yo‘qotishlarni ifodalaydi, shuningdek, qolgan organizmlar kelajakda yo‘q bo‘lib ketishi uchun zaif (ta’sirchan) bo‘lib qoladi.

Manba: Stiv Malkom. “Bioxilma-xillik atrof-muhitni boshqarishda muhimdir”, The Age, 1994-yil 16-avgust.



1-savol. Bioxilma-xillik

Matnda “A oziq to‘ri oziqlanishning muqobil yo‘llari ko‘proq bo‘lganligi sababli xilma-xilligi ko‘proq bo‘lgan ekosistemani ifodalaydi”, - degan jumla keltirilgan.

A OZIQ TO‘RIGA qarang. Ushbu oziq to‘ridagi faqat ikkita hayvon uchta to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) oziqa manbayiga ega. Ularga qaysi ikkita hayvon kiradi?

- A) Mahalliy mushuk va parazit ari
- B) Mahalliy mushuk va etxo‘r qush
- C) Parazit ari va sikada
- D) Parazit ari va o‘rgimchak
- E) Mahalliy mushuk va asalxo‘r qush



2-savol. Bioxilma-xillik

A va B oziq to‘rlari har xil joylarda joylashgan. Tasavvur qiling, har ikkala joyda ham sikadalar nobud bo‘lgan. Bularning qaysi biri bunday holatning oziq to‘rlariga ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ta’siri uchun eng yaxshi prognoz va izoh sanaladi?

- A) A oziq to‘riga ta’siri ko‘proq bo‘lishi mumkin, chunki A oziq to‘ridagi parazit ari faqat bitta oziqa manbayiga ega.
- B) A oziq to‘riga ta’siri ko‘proq bo‘lishi mumkin, chunki A oziq to‘ridagi parazit ari bir nechta oziqa manbayiga ega.
- C) B oziq to‘riga ta’siri ko‘proq bo‘lishi mumkin, chunki B oziq to‘ridagi parazit ari faqat bitta oziqa manbayiga ega.
- D) B oziq to‘riga ta’siri ko‘proq bo‘lishi mumkin, chunki B oziq to‘ridagi parazit ari bir nechta oziqa manbayiga ega.

2. LABNI YALTIRATUVCHI VOSITA

Quyidagi jadvalga siz o'zingiz tayyorlay oladigan kosmetikaning ikki xil yo'riqnomasi berilgan.

Lab bo'yog'i yumshoq va kremga o'xhash labni yaltiratuvchi vositaga qaraganda qattiqroq bo'ladi.

Labni yaltiratuvchi vosita	Lab bo'yog'i
Tarkibi:	Tarkibi:
5 gr kanakunjut moyi	5 gr kanakunjut moyi
0,2 gr asalari mumi	1 gr asalari mumi
0,2 gr palma mumi	1 gr palma mumi
1 choy qoshiq rang beruvchi modda	1 choy qoshiq rang beruvchi modda
1 tomchi xushbo'y modda	1 tomchi xushbo'y modda
Ko'rsatma:	Ko'rsatma:
Moy va mumlarni bir xil aralashma hosil bo'lgunga qadar issiq suvgan solingan idishda qizdiring. So'ngra rang beruvchi va xushbo'y moddalarni qo'shib, ularni aralashtiring.	Moy va mumlarni bir xil aralashma hosil bo'lgunga qadar issiq suvgan solingan idishda qizdiring. So'ngra rang beruvchi va xushbo'y moddalarni qo'shib, ularni aralashtiring.



1-savol. Labni yaltiratuvchi vosita

Labni yaltiratuvchi vosita va lab bo'yog'ini tayyorlashda moy va mum birligida aralashtiriladi. So'ngra rang beruvchi modda va xushbo'y modda qo'shiladi.

Ushbu yo'riqnomada bo'yicha tayyorlangan lab bo'yog'i qattiq bo'ladi va undan foydalanish oson emas. Yumshoqroq lab bo'yog'ini tayyorlash uchun tarkibiy qismlar nisbatini qanday o'zgartirgan bo'lar edingiz?



2-savol. Labni yaltiratuvchi vosita

Moylar va mumlar bir-biri bilan yaxshi aralashadigan moddalardir. Moylarni suv bilan aralashtirib bo'lmaydi va mumlar suvda erimaydi.

Agar lab bo'yog'i aralashmasini qizdirayotganda unga ko'p miqdorda suv sachrab ketsa, quyidagilardan qaysi birining sodir bo'lishi ehtimoldan holi emas?

- A) Kremga o'xshash va yumshoqroq aralashma hosil bo'ladi.
- B) Aralashma qattiqroq bo'lib qoladi.
- C) Aralashma deyarli o'zgarmaydi.
- D) Aralashmaning moyli bo'lakchalari suv yuzasiga qalqib chiqadi.



3-savol. Labni yaltiratuvchi vosita

Emulgatorlar deb ataladigan moddalar moy va mumlarning suv bilan yaxshiroq aralashishiga imkon beradi.

Nima uchunsovun va suv lab bo'yog'ini yuvib yuboradi?

- A) Suvda sovun va lab bo'yog'ini aralashishiga imkon beradigan emulgator bo'ladi.
- B) Sovun emulgator sifatida ta'sir ko'rsatadi hamda suv va lab bo'yog'ining aralashishiga imkon beradi.
- C) Lab bo'yog'idagi emulgator sovun va suvning aralashishiga imkon beradi.
- D) Sovun va lab bo'yog'i birikib, suv bilan aralashadigan emulgator hosil qiladi.



3. SEMMELVAYS KUNDALIGI

1-matn

“Iyul, 1846. Men kelgusi haftada Venadagi bosh shifoxona tug‘ruqxonasingin 1-palatasida “Janob Doktor” lavozimida ish boshlayman. Bu shifoxonada bemorlarning o‘lim ko‘rsatkichi yuqori ekanini eshitib, qo‘rqib ketdim. Ushbu oyda 208 nafar onaning kamida 36 nafari tug‘ruqdan keyingi isitmadan o‘ldi. Bola tug‘ish birinchi darajali pnevmoniya kabi xavflidir”.


Ignaz Semmelvays (1818-1865) kundaligidan olingan mazkur satrlar ko‘pchilik ayollarning tug‘ruqdan keyin o‘limiga sabab bo‘lgan yuqumli kasallik tug‘ruqdan keyingi isitmaning qayg‘uli oqibatlarini ko‘rsatadi.

Semmelvays birinchi va ikkinchi palatada tug‘ruqdan keyingi isitmadan o‘lganlar soni haqida ma’lumot to‘pladi (grafikka qarang).

Shifokorlar, jumladan, Semmelvaysga ham tug‘ruqdan keyingi isitmaning sababi butunlay qorong‘u edi. Shuningdek, Semmelvays kundaligida quyidagilari yozilgandi: “Dekabr, 1846. Nima uchun tug‘ruq asoratsiz o‘tgan bo‘lsada, ko‘pchilik ayollar ushbu isitmadan vafot etmoqdalar? Ilm-fan bizlarga asrlar davomida onalarni ko‘zga ko‘rinmaydigan epidemiya o‘ldirayotganini aytmoqda. Buning sababi havodagi o‘zgarishlar yoki qandaydir fazoviy ta’sir yoki yer qimirlashi, zilzila bo‘lishi mumkin.”

Hozirgi kunda ko‘pchilik odamlar fazoviy ta’sir yoki zilzilalar tug‘ruqdan keyingi isitmaga sabab bo‘ladi deb hisoblashmaydi. Biroq Semmelvays yashagan davrda ko‘pchilik odamlar, hattoki, olimlar ham shunday deb o‘ylashgan! Endilikda esa, bu gigiyenik sharoitlar bilan bog‘liq ekanini bilamiz. Semmelvays fazoviy ta’sir yoki zilzila tug‘ruqdan keyingi isitmaga sabab bo‘lmaganligini bilgan. U o‘zi to‘plagan ma’lumotlarga ishora qilib (grafikka qarang), hamkasblarini ishontirishga urinardi.

Har 100 ta tug‘ruqda tug‘ruqdan keyingi isitmadan o‘lganlar soni



Grafik



1-savol. Semmelvays kundaligi

Faraz qiling, siz Semmelvayssiz. Zilzilalar nima uchun tug'ruqdan keyingi isitmani keltirib chiqarmasligiga (Semmelvays to'plagan ma'lumotlarga asoslangan holda) bitta sabab yozing.

2-matn

Yorib tekshirish shifoxonadagi tadqiqotlarning bir qismi bo'lgan. O'lim sababini aniqlash uchun marhumning tanasi yorib tekshirilgan. Semmelvaysning qayd etishicha, birinchi palatada ishlayotgan talabalar, odatda, endigina tuqqan ayollarni ko'rikdan o'tkazishlaridan bir kun avval vafot etgan ayollarni yorib tekshirishda ishtirok etishgan. Ular marhumni yorib tekshirganlaridan keyin tozalikka yetarlicha e'tibor berishmagan. Ba'zilar esa o'zidan kelayotgan hid ularning o'likxonada ishlaganliklari va naqadar mehnatsevar ekanliklaridan dalolat berishidan faxrlanishardi!

Semmelvaysning do'stlaridan biri marhumni yorib tekshirish vaqtida o'ziga tasodifan jarohat yetkazib, so'ngra vafot etdi. Uning tanasi yorib tekshirilganda tug'ruqdan keyingi isitmadan vafot etgan ayollardagi kabi belgilar borligi aniqlandi. Shunda Semmelvaysda yangi fikr tug'ildi.



2-savol. Semmelvays kundaligi

Semmelvaysning yangi fikri tug'ruqxona palatalarida ayollar o'limining yuqori foiz ko'rsatkichi va talabalarning xatti-harakatlari bilan bog'liq edi.

Bu qanday fikr edi?

- A) Agar talabalar yorib tekshirishdan keyin yuviganlarida edi, tug'ruqdan keyingi isitma bilan kasallanish kamaygan bo'lardi.
- B) Talabalar yorib tekshirishda qatnashmasliklari kerak, chunki ular o'zlariga jarohat yetkazishlari mumkin.
- C) Talabalardan badbo'y hid kelib turardi, chunki ular marhumni yorib tekshirganlaridan keyin yuvinmas edilar.
- D) Talabalar o'zlarining mehnatsevar ekanliklarini ko'rsatishni

xohlashardi, bunda ular ayollarni ko‘rikdan o‘tkazayotganlarida beparvolikka yo‘l qo‘yishardi.



3-savol. Semmelvays kundaligi

Semmelvays tug‘ruqdan keyingi isitma bilan bog‘liq o‘limlar sonini kamaytirishga muvaffaq bo‘ldi. Ammo tug‘ruqdan keyingi isitma bugungi kunda ham tugatilishi qiyin bo‘lgan kasallik bo‘lib qolmoqda.

Davolanishi qiyin bo‘lgan bunday kasalliklar hali hanuzgacha shifoxonalarda muammo bo‘lib qolmoqda. Mazkur muammoni hal etishda bir qator chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Bunday chora-tadbirlardan biri choyshablarni yuqori haroratda yuvishdir.

(Choyshablarni yuvayotganda) yuqori harorat nima uchun bemor-larning kasallikka chalinish xavfini kamaytirishga imkon berishini tushuntiring.



4-savol. Semmelvays kundaligi

Ko‘pgina kasalliklarni antibiotiklar yordamida davolash mumkin. Biroq so‘nggi yillarda ba’zi antibiotiklarning tug‘ruqdan keyingi isitmaga qarshi ta’siri kamaygan.

Buning sababi nimada?


- A) Ishlab chiqarilgan antibiotiklar asta-sekin o‘z ta’sirini yo‘qotadi.
- B) Bakteriyalar antibiotiklarga chidamli bo‘lib qoladi.
- C) Bunday antibiotiklar faqat tug‘ruqdan keyingi isitmada yordam beradi, ammo boshqa kasalliklarda emas.
- D) Bunday antibiotiklarga ehtiyoj kamaygan, chunki so‘nggi yillarda aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish sezilarli darajada yaxshilangan.

4. TRANSPORT VOSITALARI



1-savol. Transport vositalari

Transport vositasi tekis yo'lda harakatlanmoqda. Rahim ismli haydovchining transport vositasida idish qo'yiladigan maxsus joyda bir stakan suv turibdi:



Rahim birdaniga tormoz berishga majbur bo'ldi. Idishdagi suv bilan nima sodir bo'lishi mumkin?

- A) Suv gorizontal tekislikda qoladi.
- B) Suv 1-tomondan to'kiladi.
- C) Suv 2-tomondan to'kiladi.
- D) Suv to'kiladi, ammo suv 1- yoki 2-tomondan to'kilishini aytal olmaysiz.



2-savol. Transport vositalari

Rahimning transport vositasi boshqa transport vositalari kabi benzin yordamida harakatlanadi. Bunday transport vositalari atrof-muhitni ifloslantiradi.

Ba'zi shaharlarda trolleybuslar mavjud: ular elektr dvigatel yordamida harakatga keladi. Bunday elektr dvigatel uchun zarur bo'ladigan kuchlanish havo liniyalari yordamida ta'minlanadi (masalan, elektr poyezdlar). Elektr energiyasi qazilma yoqilg'i boyliklarida ishlaydigan elektr stansiyalarida ishlab chiqariladi.

Shaharda trolleybuslardan foydalanish bo'yicha tarafdarlarning aytishlaricha, ushbu transport vositalari atrof-muhitni ifloslantirmaydi.

Ushbu tarafdarlar haqmi? Javobingizni izohlang.

5. ULTRATOVUSH

Ko‘pgina mamlakatlarda homila (rivojlanayotgan chaqaloq)ni ultratovush tekshiruvi (exografiya) yordamida tasvirga olish mumkin. Ultratovushlar ona va bolaning har ikkisi uchun ham xavfsiz sanaladi.



Shifokor datchikni ushlab, uni onaning qorni bo‘ylab harakatlantiradi. Ultratovush to‘lqinlari qorin bo‘shlig‘iga o‘tadi. Ular qorin bo‘shlig‘ida homilaning yuzasidan qaytadi. Ushbu qaytgan to‘lqinlar yana datchikda yig‘iladi va tasvir hosil qiladigan qurilmaga uzatiladi.



1-savol: Ultratovush

Ultratovush qurilmasi tasvirni hosil qilishi uchun homila va datchik orasi-dagi **masofani** hisoblashi kerak.

Ultratovush to‘lqinlari qorin bo‘shlig‘ida 1540 m/s tezlikda harakatlanadi. Ushbu qurilma masofani hisoblay olishi uchun nimani o‘lchashi zarur?



2-savol. Ultratovush

Homila tasvirini rentgen nurlari yordamida ham olish mumkin. Biroq ayollarga homiladorlik davrida rentgen nurlari yordamida qorin bo‘shlig‘ini tekshirtirishdan saqlanishlari tavsiya etiladi.

Nima uchun ayol, **ayniqsa**, homiladorlik davrida qorin bo‘shlig‘ini rentgen qildirishdan saqlanishi kerak?



3-savol. Ultratovush

Bo'lajak onalarning ultratovush tekshiruvi yordamida quyidagi savollarga javob olish mumkinmi? Har bir savol uchun "Ha" yoki "Yo'q"ni aylanaga oling.

Ushbu savolga ultratovush tekshiruvi yordamida javob olish mumkinmi?	Ha yoki Yo'q?
Bittadan ko'p yoki bir nechta bola bormi?	Ha / Yo'q
Bolaning ko'zлari qanday rangda?	Ha / Yo'q
Bolaning o'lchami me'yordami?	Ha / Yo'q



4-savol. Ultratovush

Quyidagi ma'lumotlarga qanchalik qiziqasiz?


Har bir qatorda faqat bitta katakchani belgilang.

	Juda qiziq	Qiziq	Unchalik qiziq emas	Qiziq emas
a) Ultratovush tanaga zarar yetkazmasdan qanday qilib kirishini tushunish	<input type="checkbox"/> 1	<input type="checkbox"/> 2	<input type="checkbox"/> 3	<input type="checkbox"/> 4
b) Rentgen nurlari va ultratovush o'rtaсидаги farqlar haqida ko'проq bilish	<input type="checkbox"/> 1	<input type="checkbox"/> 2	<input type="checkbox"/> 3	<input type="checkbox"/> 4
c) Tibbiyotning boshqa sohalarida ultratovushдан foydalanish haqida bilish	<input type="checkbox"/> 1	<input type="checkbox"/> 2	<input type="checkbox"/> 3	<input type="checkbox"/> 4

6. VENERANING TRANZITI

2004-yil 8-iyun kuni Quyosh oldidan o'tayotgan Venera planetasini Yerning ko'pgina joylaridan ko'rish mumkin bo'lgan. Bu Veneraning "tranziti" deyiladi, u Venera orbitasi Quyosh va Yer o'rtasidan o'tganda sodir bo'ladi. Veneraning avvalgi tranziti 1882-yilda sodir bo'lgan va boshqasi esa 2012-yilda ro'y berishi taxmin qilingan.

Quyida Veneraning 2004-yildagi tranziti tasvirlangan. Teleskop Quyoshga qaratilgan va tasvir oq ekranda aks ettirilgan.



1-savol. Veneraning tranziti

Nima sababdan Veneraning tranziti to'g'ridan to'g'ri teleskop orqali qarab emas, balki tasvirni oq ekranda aks ettirish orqali kuzatilgan?

- A) Quyosh nuri Venerani ko'rish uchun judayam yorug'lik qiladi.
- B) Quyosh yetarlicha katta bo'lib, kattalashtirmasa ham ko'rindi.
- C) Quyoshga teleskop orqali qarash ko'zlariningizni zararlashi mumkin.
- D) Tasvirni ekranda aks ettirish orqali uni kichraytirish kerak edi.



2-savol. Veneraning tranziti

Yerdan qaraganda, quyidagi planetalarning qaysi birini ma'lum vaqtarda Quyosh yuzasi bo'ylab tranzitda ko'rish mumkin?

- A) Merkuriy
- B) Mars
- C) Yupiter
- D) Saturn




3-savol. Veneraning tranziti

Quyidagi jumlada bir nechta so‘zlarning tagiga chizilgan.

Astronomlarning taxminiga ko‘ra, ushbu asr oxirida Quyosh yuzasi bo‘ylab Saturnning tranzitini Neptundan kuzatsa bo‘ladi.


Ushbu tranzit qachon sodir bo‘lishi mumkinligini aniqlash maqsadida internet yoki kutubxonadan ma’lumot qidirishda tagiga chizilgan so‘zlarning qaysi **uchtasi** eng foydali bo‘ladi?



7. GRAND-KANYON

Grand-Kanyon AQSH cho'lida joylashgan. U ko'pgina tog' jinslaridan iborat qatlamlarni o'z ichiga olgan juda katta va chuqur kanyondir. Qadimda qachonlardir Yer qobig'idagi siljishlar tufayli ushbu qatlamlar yuqoriga ko'tarilgan. Hozirgi kunda Grand-Kanyonning chuqurligi ba'zi joylarda 1,6 km. Kanyon tubi bo'ylab Kolorado daryosi oqib o'tadi.

Grand-Kanyonning janubiy chekkasidan olingan quyidagi suratga qarang. Kanyonning yon tomonlarida bir necha xil tog' jinslari qatlamlarini ko'rish mumkin.



1-savol. Grand-Kanyon

Grand-Kanyon milliy bog'iga har yili besh millionga yaqin odamlar tashrif buyurishadi. Ko'p sonli tashrif buyuruvchilarning bog'ga yetkazayotgan zarari xavotirga solmoqda.

Quyidagi savollarga ilmiy tadqiqotlar yordamida javob olish mumkinmi? Har bir savol uchun "Ha" yoki "Yo'q" ni aylanaga oling.

Quyidagi savollarga ilmiy tadqiqotlar yordamida javob olish mumkinmi?	Ha yoki Yo‘q?
Piyodalar yo‘lakchalaridan foydalanilganda eroziya qanchalik ortadi?	Ha / Yo‘q
Bog‘ hududi 100 yil avval bo‘lgani kabi go‘zalmi?	Ha / Yo‘q



2-savol. Grand-Kanyon

Grand-Kanyonda harorat 0 °C dan past va 40 °C dan yuqori bo‘lgan oraliqda o‘zgarib turadi. Cho‘l hududi bo‘lishiga qaramasdan, ba’zan tog‘ jinslari yoriqlarida suv bo‘ladi. Qanday qilib haroratning bunday o‘zgarishlari va yoriqlardagi suv tog‘ jinslarining tezroq yemirilishiga yordam beradi?

- A) Muzdek suv iliq tog‘ jinslarini eritadi.
- B) Suv tog‘ jinslarini mustahkam birlashtiradi.
- C) Muz tog‘ jinslarining yuzasini silliqlaydi.
- D) Muzlagan suv tog‘ jinslari yoriqlarida kengayadi.



3-savol. Grand-Kanyon

Grand-Kanyonning A ohaktosh qatlamida mollyuskalar, baliqlar, korallar kabi dengiz hayvonlarining ko‘plab qazilma holdagi qoldiqlari mavjud. Million yillar avval nima sodir bo‘lganki, bunday qazilma holdagi qoldiqlar nima uchun o‘sha yerda paydo bo‘lganini tushuntirib beradi?

- A) Qadim zamonlarda odamlar ushbu hududga dengiz mahsulotlarini olib kelishgan.
- B) Qachonlardir okeanlarda to‘fonlar kuchliroq bo‘lgan va ulkan to‘lqinlar dengiz jonzotlarini quruqlikka chiqarib tashlagan.
- C) Ushbu hudud o‘sha vaqtida okean bilan qoplangan edi va keyinchalik okean chekingan.
- D) Ba’zi dengiz hayvonlari dengizga o‘tishdan avval quruqlikda yashagan.



4-savol. Grand-Kanyon

Quyidagi fikrlarni qay qarajada ma'qullaysiz?

Har bir qatorda faqat bitta katakchani belgilang.

*Butunlay
ma'qullay-
man*

*Ma'qullay-
man*

*Ma'qullamay-
man*

*Umuman
ma'qulla-
mayman*

- a) Qazilma holdagi organizmlarning qoldiqlarini tizimli ravishda o'rganish muhim ahamiyatga ega.

 ₁ ₂ ₃ ₄

- b) Tabiiy milliy bog'larni ularga yetkazilayotgan zarardan himoya qilish bo'yicha harakatlar ilmiy asoslangan bolishi kerak.

 ₁ ₂ ₃ ₄

- c) Tog' jinslarining geologik qatlamlarini ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

 ₁ ₂ ₃ ₄

XALQARO TADQIQOTLARDA O'QUVCHILARNING
O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH
BO'YICHA



TOPSHIRIQLARDAN
NAMUNALAR



PISA

O'QISH SAVODXONLIGI

Axborotnomaning ushbu bo'limida PISA dasturi doirasidagi o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash yo'nalishiga oid topshiriqlardan namunalar, ularni bajarish jarayonida e'tibor berilishi kerak bo'lgan jihatlar hamda topshiriqlarni yechish bo'yicha tavsiyalar va baholash mezonlari keltirilgan.

O'qish savodxonligi – shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnni topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir. O'qish savodxonligi yuksaltirish – bu barcha fanlardan kitob o'qish jarayonida fanning mazmuni va mohiyatini chuqur anglash imkoniyatidir.

Bugungi kunda insonning kamol topishi, ta'lim sohasida muvaffaqiyatga erishishi, iqtisodiy hamkorlik va fuqorolik pozitsiyasini saqlab qolishi uchun talab etiladigan o'qish savodxonligi ko'nikmasi oldingilardan tubdan farq qiladi. Tobora rivojlanib borayotgan texnologiyalarning hayotimizning har jabhasiga kirib kelishi insonlarining ma'lumotlarni o'qish va almashish tarzini tubdan o'zgartirib yubordi. Inson shaxsiy va kasbiy barkamolikka erishishi uchun butun hayoti davomida kurashadi va kelajak o'quvchilari tobora murakkablashib, ko'payib borayotgan ma'lumotlarni samarali boshqara olishlari uchun raqamli qurilmalardan oqilona foydala olishlari kerak. Avvallari, o'quvchining o'qish savodxonligini baholashning asosiy usuli sodda matnlarni o'qib, tushunish, talqin qilish va ular ustida mulohaza yuritishdan iborat edi. Mazkur ko'nikmalarni saqlab qolgan holda, axborot texnologiyalarining insonlar ijtimoiy va kundalik hayotiga yanada integrallashuviga ko'proq e'tibor qaratilishi insonning o'qish savodxonligi doimiy ravishda yangilanib, kengayib borishi zarurligini taqozo etadi. Inson barkamolligi XXI asrda talab etiladigan savodxonlikka oid masalalar bilan chambarchas bog'langan keng miqyosdagi yangidan yangi ko'nikmalarni o'zida aks ettirishi lozim.

O'qish savodxonligi nafaqat ta'lim tizimida, balki boshqa sohalarda ham yutuqlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning kitob o'qish qobiliyatiga e'tibor qaratish, jumladan, ularning ma'lumotni tanlay bilishlari, tushunish, talqin qilish qobiliyatlarini baholash tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biridir.

PISA ko‘p sonli o‘quvchilarni baholaydi. Bu o‘quvchilarning ba’zilari ilmiy yoki kasbiy sohani egallash uchun oliy ta’lim muassasilariga boradilar, boshqalari ishga joylashish uchun zarur tayyorgarlik ko‘nikmalarini egallaydilar, ba’zilari esa umumiylor ta’limni tamomlashi bilanoq oddiy ishga joylashadilar. Ularning ilm yoki mehnat faoliyatini tanlashidan qat’iy nazar, o‘quvchilarning fuqarolik jamiyatida hamda shaxsiy hayotdagi faol ishtiroklarida o‘qish savodxonligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu bo‘limida PISA xalqaro dasturi doirasida 2000-yildan 2018-yilgacha o‘tkazilgan o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha tadqiqotlar davomida o‘qish savodxonligi, uni baholash bo‘yicha tuzilgan topshiriqlardan namunalar keltirilgan bo‘lib, ulardan umumiylor ta’lim muassasalarining 7-11-sinf o‘quvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari mustaqil ravishda o‘zlarining maktabda egallagan bilimlarini mustahkamlash, o‘zini sinab ko‘rish, mantiqiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida foydalanishlari mumkin.

TOPSHIRIQLARDAN NAMUNALAR

1. ASALARILAR


Asalarilar haqida matn

Ushbu va keyingi sahifadagi ma'lumotlar asalarilar haqidagi risoladan olingan. Undan keyin kelgan savollarga javob berish uchun ma'lumotlarga murojaat qiling.

Nektarni yig'ish

Asalarilar omon qolish uchun asal tayyorlaydilar. Bu ularning yagona muhim ozuqasidir. Agar uyada 60 000 asalari bo'lsa, ularning uchdan bir qismi uy asalarlari tomonidan asalga aylantiriladigan nektar yig'ishga jalg qilinadi. Asalarilarning oz qismi ozuqa izlovchilar sifatida ishlaydi. Ular nektar manbasini topadilar, keyin boshqa asalarilarga uning qayerda ekanligini aytish uchun uyaga qaytib boradilar.

Ozuqa izlovchilar boshqa asalarilarga nektar manbai qayerdaligini, raqs ijro etish orqali asalarilar uchishi kerak bo'lgan yo'nalish va masofa haqida ma'lumot beradilar. Ushbu raqs paytida asalarilar 8 raqami shaklida aylanada harakatlanib, qorinlarini u tomondan bu tomonga silkitadilar. Raqs quyidagi diagrammada ko'rsatilgan naqshga ko'ra bo'ladi.



Diagrammada asalari uyasining ichida vertikal yuzadagi raqslar ko'rsatilgan. Agar 8 raqamining o'rta qismi to'g'ri yuqoriga ishora qilsa, bu asalarilar to'g'ridan-to'g'ri quyosh tomon uchib ozuqani topishlari mumkinligini anglatadi. Agar 8 raqamining o'rta qismi o'ng tomonga ishora qilsa, ozuqa quyoshning o'ng tomonida bo'ladi.

Uyadan ozuqagacha bo'lgan masofa, asalari qorinini silkitgan vaqt davomiyligi bilan belgilanadi. Agar ozuqa asalariga juda yaqinida bo'lsa, u qornini qisqa muddat silkitadi. Agar uzoq bo'lsa, u uzoq muddat qornini silkitadi.

Asal tayyorlash

Asalarilar uyalariga nektarni olib kelib, uni uya asalarilariga beradilar. Uya asalarilari nektarni pastki jag'lari bilan olib, uyaning iliq quruq havosiga olib boradilar. Nektar birinchi marta yig'ilganida taxminan 80% suv bilan aralashtirilgan shakar va minerallardan iborat bo'ladi. O'n-yigirma daqiqa o'tib, ortiqcha suv bug'lanigandan so'ng, uy asalarilari nektarni uyadagi chuqurchalarga bug'lanishni davom ettirish uchun soladilar. Uch kundan keyin chuqurchalardagi asalda taxminan 20% suv qoladi. Ushbu bosqichda asalarilar chuqurchalarni asal mumidan tayyorlangan qopqoq bilan yopadilar.

Qaysi payt bo'lmasin asalarilar odatda bir xil gul va bir xil joydan nektar yig'adilar. Nektarning asosiy manbalari bular - mevali daraxtlar, beda va gullaydigan daraxtlardir.





1-savol. Asalarilar

Asalarilar raqsidan maqsad nima?

- A) Asalning muvaffaqiyatli ishlab chiqarilishini nishonlash
- B) Ozuqa izlovchilar topgan o'simlik turini ko'rsatish
- C) Yangi malika asalarining tug'ilgan kunini nishonlash
- D) Ozuqa izlovchilar qayerdan ozuqa topganliklarini ko'rsatish.



2-savol. Asalarilar

Nektarning uchta asosiy manbasini yozing.

1. _____
2. _____
3. _____



3-savol. Asalarilar

Nektar va asal nimasi bilan bir biridan farqlanadi?

- A) Ulardagi suvning nisbati
- B) Ulardagi shakarning minerallarga nisbati
- C) Ular yig'iladigan o'simlik turi
- D) Ularni hosil qiluvchi asalari turi

4-savol. Asalarilar

Raqsda asalarilar yemishni uyadan qancha uzoqligini ko'rsatish uchun nima qiladilar?

.....
.....
.....

2. TELEKOMMUTING

Kelajakning yo‘li

Tasavvur qiling, barcha ishlarni kompyuterda yoki telefonda bajargan holda, elektron tarzda ishlash, “telekommuting”¹ qilish naqadar ajoyib! Gavjum avtobuslar va poezdlarga chiqishingizni yoki ishga borib kelishingiz uchun vaqt sarflashingizni hojati yo‘q. Siz xohlagan joyda ishlappingiz mumkin - shunchaki barcha taqdim etilishi mumkin bo‘lgan ish imkoniyatlari haqida o‘ylab ko‘ring!


Malika

Amalga oshirishdagi xavf

Ishga borib kelish vaqtini qisqartirish va energiya sarfini kamaytirish shubhasiz yaxshi fikr. Ammo bunday maqsadga jamoat transportini yaxshilash yoki ish joylarini odamlar yashaydigan joylar yaqinida bo‘lishini ta’minlash orqaligina erishish mumkin. Telekommutatsiya har kimning hayot tarzining bir qismi bo‘lishi kerak degan maqsadli fikr odamlar fikrini tobora ko‘proq chulg‘ab olmoqda. Biz haqiqatan ham jamiyatning bir qismi bo‘lish hissi yanada yomonlashishini istaymizmi?

Ravshan

¹“Telekommuting” - bu 1970-yillarning boshlarida Jek Nilles tomonidan ishchilar markaziy ofisdan (masalan, uyda) kompyuterda ishlash va ma’lumotlar va hujjatlarni markaziy ofisga telefon liniyalari orqali uzatadigan vaziyatni tavsiflovchi atama.



Quyidagi savollarga javob berish uchun yuqorida keltirilgan “Telekommuting” matnidan foydalaning



1-savol. Telekommuting

“Kelajakning yo‘li” va “Amalga oshirishdagi xavf” o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?

- A) Ularda bitta umumiylar xulosaga kelish uchun turli xil dalillardan foydalanilgan.
- B) Ular bir xil uslubda yozilgan, ammo ular umuman turli mavzularda.
- C) Ular bir xil umumiylar nuqtai nazarni ifodalaydi, ammo har xil xulosalarga keladi.
- D) Ular bir xil mavzudagi qarama-qarshi fikrlarni ifodalaydi.



2-savol. Telekommuting

Telekommutatsiya qilish qiyin bo‘lgan ishlarlardan biri nima? Javobingiz uchun sabab keltiring.

.....
.....
.....



3-savol. Telekommuting

Qaysi gapga Malika ham, Ravshan ham qo‘shiladilar?

- A) Odamlar istagancha soat ishlashlari uchun ruxsat berilishi kerak.
- B) Odamlar ishga yetib olishlari uchun ko‘p vaqt sarflashlari yaxshi fikr emas.
- C) Telekommutatsiya hammaga ham to‘g‘ri kelmaydi.
- D) Ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish ishning eng muhim qismidir.

3. Rapa Nui

PISA



Rapa Nui

Kirish

Kirish qismini o'qing. So'ngra KEYINGISI tugmasini bosing.

Tasavvur qiling, kelasi hafta mahalliy kutubxonada ma'ruza bo'lib o'tadi. Ushbu ma'ruzani mahalliy universitet professorlaridan biri o'tkazadi. U o'zining Chili g'arbidan 3200 kilometr uzoqlikda joylashgan tinch okeanidagi Rapa Nui orolidagi ilmiy-tadqiqot ishlari haqida muhokama olib boradi.

Siz tarix darsida ushbu ma'ruzada ishtirok etasiz. Ma'ruzada ishtirok etishingizdan avval o'qituvchингиз Rapa Nui tarixi haqida biron bir narsani o'rganish uchun sizdan izlanish olib borishingizni so'raydi.

Siz o'qishingiz kerak bo'lgan birinchi manba bu professorning Rapa Nuida bo'lganida yozgan blogidir.

Blog matni bilan tanishish uchun KEYINGISI tugmasini bosing.



**Rapa Nui**

Savol 1/7

O'ng tomondagi "Professorning blogi" matniidan foydalaning. Savolga javob berish uchun kerakli javobni belgilang.

Blog matniga ko'ra, professor ilmiy-tadqiqot ishlarini qachon boshlagan?

- 90-yillarda.
- To'qqiz oy oldin.
- Bir yil avval
- May oyining boshida.

Blog

www.theprofessorblog.com/fieldwork/RapaNui

**Professorning blogi**

23-may, soat 11-22 da joylangan

Bugun ertalab derazamdan qarar ekanman, Pasxa oroli nomi bilan tanilgan Rapa Nuida sevishni o'rgangan manzaramni ko'rdim. Maysalar va butalar yam-yashil, osmon moviy va qadimiy bo'lib, hozirda mavjud bo'lмаган vulqonning qoldiqlari orqa tarafda ko'rinish turar edi.

Bu mening oroldagi so'nggi haftam ekanligidan biroz xafaman. Men tajriba ishimni yakunladim va uuga qaytaman. Bugun kechroq qoyalarni aylanib chiqib, oxirgi to'qqiz oy davomida o'rganganlarim, moai haykallari bilan xayrashaman. Mana bu ulkan haykallarning ba'zi suratlari.



Agar siz bu yil mening blogimni kuzatgan bo'sangiz, bilasizki, Rapa Nui aholisi bundan yuz yillar oldin moailarga ishlov bergen. Bu maftunkor moailarning barchasi orolning sharqiy qismidagi yagona sangtarosh qurilmasida ishlov berilgan. Ulardan ba'zilari minglab kilogramm og'irlilikda bo'sada, Rapa Nui aholisi ularni kranlar yoki boshqa og'ir texnikalardan foydalanmasdan sangtarosh qurilmasidan uzoqroq joyga olib borishgan.

Ko'p yillar davomida arxeologlar bu ulkan haykallar qanday qilib ko'chirib o'tilganligini bilmaganlar. Bu 1990 -yillarga qadar jumboq edi, o'sha payt bir guruh arxeologlar va Rapa Nui aholisi ororda bir vaqtlar mo'l-ko'l o'sgan katta daraxtlardan yasalgan arqon, yog'och g'iloflar va yurish yo'llari yordamida moaini tashish va ko'tarish mumkinligini namoyish etdilar. Moaining jumbog'i hal qilindi.

Biroq, yana bir jumboq bor edi. Bu o'simliklar va moai ko'chirilgan katta daraxtlar bilan nima sodir bo'ldi? Aytganimdek, derazadan qaraganimda, o'tlar, butalar va bir nechta mayda daraxtlarni ko'raman, amma bu ulkan haykallarni ko'chirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan hech narsa yo'q. Bu ajoyib jumboq va men kelajakdag'i eslatmalarim va ma'ruzalarimni unga bag'ishlayman. Ungacha, agar xohlasangiz, bu jumboq bilan o'zingiz shug'ullanishingiz mumkin. Men sizga Jared Diamondning "Kollaps" nomli kitobidan boshlashningizni maslahat beraman. [Ushbu Kollaps sharhi boshlash uchun yahshi joy.](#)

 Sayoxatchi_14

24 - may, 16:31

Salom professor! Pasxa orolidagi ishlaringizni kuztib borayapman. Kollapsni intizorlik bilan kutayapman!

 KB_Orol

25 - may, 9:07

Pasxa orolidagi sarguzashtlaringiz haqida o'qishni ham yaxshi ko'raman, lekin mening fikrimcha, boshqa nazariya ham bor. Ushbu maqolani o'qing: [www.sciencenews.com/Polynesian_rats_Rapa_Nui](#)




Rapa Nui

Savol 2/7

O'ng tomondagi "Professoring blogi" matnidan foydalaning. Savolga javobingizni yozing.

Blogning oxirgi obzasida, professor shunday yozadi: "...yana bir jumboq bor edi..."

U qanday jumboqqa murojaat qilmoqda?



Blog

www.theprofessorblog.com/fieldwork/RapaNui



Professoring blogi

23-may, soat 11-22 da joylangan

Bugun ertalab derazamdan qarar ekanman, Pasxa oroli nomi bilan tanilgan Rapa Nuida sevishni o'rgangan manzaramni ko'rdim. Maysalar va butalar yam-yashil, osmon moviy va qadimiy bo'lib, hozirda mayjud bo'limgan vulqonning qoldiqlari orqa tarafda ko'rinish turar edi.

Bu mening oroldagi so'nggi haftam ekanligidan biroz xafaman. Men tajriba ishimni yakunladim va uya qaytaman. Bugun kechroq qoyalarni aylanib chiqib, oxirgi to'qqiz oy davomida o'rganganlarim, moai haykallari bilan xayrashaman. Mana bu ulkan haykallarning ba'zi suratlari.



Agar siz bu yil mening blogimni kuzatgan bo'sangiz, bilasizki, Rapa Nui aholisi bundan yuz yillar oldin moailarga ishlov bergan. Bu maftunkor moailarning barchasi orolning sharqi qismidagi yagona sangtarosh qurilmasida ishlov berilgan. Ulardan ba'zilari minglab kilogramm og'irlikda bo'sada, Rapa Nui aholisi ularni kranlar yoki boshqa og'ir texnikalardan foydalanmasdan sangtarosh qurilmasidan uzoqroq joyga olib borishgan.

Ko'p yillar davomida arxeologlar bu ulkan haykallar qanday qilib ko'chirib o'tilganligini bilmaganlar. Bu 1990 -yillarga qadar jumboq edi, o'sha payt bir guruh arxeologlar va Rapa Nui aholisi orolda bir vaqtlar mo'l-ko'l o'sgan katta daraxtlardan yasalgan arqon, yog'och g'iloflar va yurish yo'llari yordamida moaini tashish va ko'tarish mumkinligini namoyish etdilar. Moaining jumbog'i hal qilindi.

Biroq, yana bir jumboq bor edi. Bu o'simliklar va moai ko'chirilgan katta daraxtlar bilan nima sodir bo'ldi? Aytganimdek, derazadan qaraganimda, o'tlar, butalar va bir nechta mayda daraxtlarni ko'raman, ammo bu ulkan haykallarni ko'chirish uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan hech narsa yo'q. Bu ajoyib jumboq va men kelajakdag'i eslatmalarim va ma'ruzalarimni unga bag'ishlayman. Ungacha, agar xohlasangiz, bu jumboq bilan o'zingiz shug'ullanishingiz mumkin. Men sizga Jared Diamondning "Kollaps" nomli kitobidan boshlashningizni maslahat beraman. [Ushbu Kollaps sharhi boshlash uchun yahshi joy.](#)



Sayoxatchi_14

24 - may, 16:31

Salom professor! Pasxa orolidagi ishlaringizni kuztib borayapman. Kollapsni intizorlik bilan kutayapman!



KB_Orol

25 - may, 9:07

Pasxa orolidagi sarguzashtlaringiz haqidagi o'qishni ham yaxshi ko'raman, lekin mening fikrimcha, boshqa nazariya ham bor. Ushbu maqolani o'qing: www.sciencenews.com/Polynesian_rats_Rapa_Nui



Rapa Nui

Savol 3/7

O'ng tomonda keltirilgan "Kollaps kitobiga sharh" matniga qarang. Savolga javob berish uchun jadvaldan kerakli javob variantlarini belgilang.

Quyida "Kollaps" kitobining sharhidan olingan ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar faktlarmi yoki fikrlarmi? Har bir ma'lumot uchun «Fakt» yoki «Fikr»ni tanlang.

Ushbu ma'lumotlar faktlarmi yoki fikrlarmi?	Fakt	Fikr
Ushbu kitobda muallif noto'g'ri tanlash va atrof-muhitga zarar yetkazish bilan yo'q bo'lib ketgan bir necha sivilizatsiyalar haqida hikoya qildi.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
Kitobda tasvirlangan eng tashvishli misollardan biri Rapa Nuidir.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
Ular Moai mashhur haykallarini yarat-ganlar va bu ulkan moailarni orolning turli qismlariga ko'chirish uchun mayvjud bolgan tabiiy resurslardan foydalanganlar.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
Birinchi yevropaliklar 1722 yilda Pasxa oroliga kelganlarida, moайлар hali ham o'z joyida, ammo daraxtlar yo'q bo'lib ketgan edi.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
Kitob yaxshi yozilgan va atrof-muhit haqida qayg'uradigan har bir kishi uni o'qishiga arzigulidir.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>

Blog Kitob sharhi

www.academicbookreview.com/Collapse



Kollaps kitobiga sharh

Jared Diamondning yangi kitobi "Kollaps" atrof-muhitga yetkazilayotgan zarar oqibatlari haqida aniq ogohlantirishni beradi. Ushbu kitobda muallif noto'g'ri tanlash va atrof-muhitga zarar yetkazish bilan yo'q bo'lib ketgan bir necha sivilizatsiyalar haqida hikoya qiladi. Kitobda tasvirlangan eng ta'sirli misollardan biri bu Rapa Nuidir.

Muallif Rapa Nuini milodiy 700-yildan keyin polineziyaliklar tomonidan o'rnatganligini yozadi. Ular 15000 kishidan iborat farovon jamiyat qurdilar. Ular moai mashhur haykallarini yaratganlar va bu ulkan moaini orolning turli qismlariga o'tkazish uchun mavjud bo'lgan tabiiy resurslardan foydalanganlar. 1722-yilda birinchi yevropaliklar Rapa Nuiga kelganlarida, moайлар hali ham o'z joyida, lekin daraxtlar allaqachon yo'q bo'lib ketgan edi. Tirik qolishdagi kurashda aholi omon qolish uchun bir necha ming kishiga qisqardi. Janob Diamondning yozishicha, Rapa Nui aholisi yerlarni fermerlik va boshqa maqsadlarda tozalaganlar, shuningdek, orolda yashagan dengiz jonzotlari va quruqlikdagi qushlarning ko'plab turlarini haddan tashqari ko'p ovlaganlar. Uning ta'kidlashicha, tabiiy boyliklar miqdori kamayishi fuqarolik urushlariga va Rapa Nuida jamiyatning qulashiga olib kelgan.

Ushbu ajoyib, ammo qo'rqinchli kitobning sabog'i shundaki, o'tmishda odamlar barcha daraxtlarni kesish va hayvonlarni yo'q bo'lib ketgunicha oqilish va bu orqali atrof-muhitni vayron qilish yo'lini tanlaganlar. Muallif optimistik nuqtai nazardan ta'kidlaganidek, biz bugun xuddi shunday xatoga **yo'l qo'ymaslikni** tanlashimiz mumkin. Kitob yaxshi yozilgan va atrof-muhit haqida qayg'uradigan har bir kishi uchun o'qishiga arzigulidir.



PISA

Rapa Nui
Savol 4/7

O'ng tomonda keltirilgan «Polineziya kalamushlari Rapa Nuidagi daraxtlarni yo'q qildimi?» maqolasiga qarang. Savolga javob berish uchun kerakli javobni belgilang.

Maqolada tilga olingan olimlar va Jared Diamond nimani ma'qullahmoqda?

- Odamlar yuz yillar oldin Rapa Nuiga joylashganliklarini
- Rapa Nuida katta daraxtlar yo'q bo'lib ketganligini
- Polineziya kalamushlari Rapa Nuidagi katta daraxtlarning urug'ini yeganligini
- Yevropaliklar Rapa Nuiga 18-asrda kelganliklarini

Blog Kitob sharhi Ilmiy yangiliklar
www.sciencenews.com/Polynesian_rats_Rapa_Nui

ILMIY YANGILIKLAR

Polineziya kalamushlari Rapa Nuidagi daraxtlarni yo'q qildimi?

Muallif: Maykl Kimball, ilmiy muhbir

2005-yil Jared Diamond "Kollaps" kitobini nashr qildi. Ushbu kitobda u Rapa Nui aholisini tasvirlagan (shuningdek, Pasxa oroli deb ham nomlanadi).

Kitob nashr etilgandan so'ng ko'p o'tmay, katta tortishuvlarga sabab bo'ldi. Ko'pchilik olimlar Diamondning Pasxa orolida sodir bo'lgan voqealar haqidagi nazariyasiga shubha bilan qarashdi. Ular ulkan daraxtlar 18-asrda yevropaliklar orolga birinchi bor kelishganida yo'q bo'lib ketganligiga qo'shilishdi, ammo Jared Diamondning yo'qolib ketish sabablari haqidagi nazariyasiga qo'shilmadilar.

Hozirda ikki olim, Karl Lipo va Terri Xant yangi nazariyani nashr etdilar. Ularning fikriga ko'ra, Polineziya kalamushlari daraxtlarning urug'ini yegan va shu bilan yangi daraxtlar o'sishiga to'sqinlik qilgan. Ularning fikriga ko'ra, kalamush tasodifan yoki ma'lum maqsadda Rapa Nui oroliga birinchi odamlar ko'chib kelgan kanoyelarda olib kelingan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kalamushlar soni har 47 kunda ikki baravar ko'payishi mumkin. Bu boqish uchun juda ko'p kalamush. O'zlarining nazariyalarini qo'llab-quvvatlash uchun Lipo va Xunt kalamushlarning belgilarini ko'rsatuvchi palma kemirilgan yong'oqlarining qoldiglariga ishora qilmoqdalar. Shubhasiz, ular Rapa Nuidagi o'rmonlarni yo'q qilishda odamlar ham muhim rol o'ynagan degan fikrga qo'shiladilar. Biroq, ular polineziya kalamushlari, ko'rib chiqilgan omillar orasida nisbatan ko'proq aybdor ekanligiga ishonadilar.

PISA

Rapa Nui
Savol 5/7

O'ng tomonda keltirilgan «Polineziya kalamushlari Rapa Nuidagi daraxtlarni yo'q qildimi?» maqolasiga qarang. Savolga javob berish uchun kerakli javobni belgilang.

Karl Lipo va Terri Xant Rapa Nuining katta daraxtlari yo'q bo'lib ketganligi haqidagi nazariyalarini qo'llab-quvvatlash uchun qanday dalillarni keltirdilar?

- Orolga kalamushlar ko'chmanchilarning kanoelerida keldi.
- Kalamushlarni ko'chmanchilar ma'lum maqsadda olib kelgan bo'lishi mumkin
- Kalamushlar soni har 47 kunda ikki baravar ko'payishi mumkin.
- Palma kemirilgan yong'oqlarining qoldiglari kalamushlar belgilarini ko'rsatadi.

Blog Kitob sharhi Ilmiy yangiliklar
www.sciencenews.com/Polynesian_rats_Rapa_Nui

ILMIY YANGILIKLAR

Polineziya kalamushlari Rapa Nuidagi daraxtlarni yo'q qildimi?

2005-yil Jared Diamond "Kollaps" kitobini nashr qildi. Ushbu kitobda u Rapa Nui aholisini tasvirlagan (shuningdek, Pasxa oroli deb ham nomlanadi).

Kitob nashr etilgandan so'ng ko'p o'tmay, katta tortishuvlarga sabab bo'ldi. Ko'pchilik olimlar Diamondning Pasxa orolida sodir bo'lgan voqealar haqidagi nazariyasiga shubha bilan qarashdi. Ular ulkan daraxtlar 18-asrda yevropaliklar orolga birinchi bor kelishganida yo'q bo'lib ketganligiga qo'shilishdi, ammo Jared Diamondning yo'qolib ketish sabablari haqidagi nazariyasiga qo'shilmadilar.

Hozirda ikki olim, Karl Lipo va Terri Xant yangi nazariyani nashr etdilar. Ularning fikriga ko'ra, Polineziya kalamushlari daraxtlarning urug'ini yegan va shu bilan yangi daraxtlar o'sishiga to'sqinlik qilgan. Ularning fikriga ko'ra, kalamush tasodifan yoki ma'lum maqsadda Rapa Nui oroliga birinchi odamlar ko'chib kelgan kanoyelarda olib kelingan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kalamushlar soni har 47 kunda ikki baravar ko'payishi mumkin. Bu boqish uchun juda ko'p kalamush. O'zlarining nazariyalarini qo'llab-quvvatlash uchun Lipo va Hunt kalamushlarning belgilarini ko'rsatuvchi palma kemirilgan yong'oqlarining qoldiglariga ishora qilmoqdalar. Shubhasiz, ular Rapa Nuidagi o'rmonlarni yo'q qilishda odamlar ham muhim rol o'ynagan degan fikrga qo'shiladilar. Biroq, ular polineziya kalamushlari, ko'rib chiqilgan omillar orasida nisbatan ko'proq aybdor ekanligiga ishonadilar.

**Rapa Nui**

Savol 6/7

Yorliqlarning har birini bosish orqali o'ng tarafda keltirilgan uchta manbaga murojaat qiling. Sabablari va ularning natijalarini nazariyalar haqidagi jadvalning to'g'ri joylariga olib joylashtiring.

Nazariyalar

Sabab	Natija	Nazariya tarafdarlari
		Jared Diamond
		Karl Lipo va Terri Xant
Moailarga yagona sangtarosh qurilmasida ishlov berilgan	Polineziya kalamushlari daraxt urug'larini yegan va natijada birorta daraxt o'smagan	Odamlar polineziya kalamushlari Rapa Nuiga olib kelish uchun kanoyedan foydalanganlar
Katta daraxtlar Rapa Nuidan yo'q bo'lib ketdi	Rapa Nui aholisiga maoilarni ko'chirish uchun tabiiy resurslar kerak edi	Odamlar qishloq xo'jaligi va boshqa sabablarla ko'ra yerni tozalash uchun daraxtlarni kesishdi

ILMIY YANGILIKLAR

Polineziya kalamushlari Rapa Nuidagi daraxtlarni yo'q qildimi?

2005-yil Jared Diamond "Kollaps" kitobini nashr qildi. Ushbu kitobda u Rapa Nui aholisini tasvirlagan (shuningdek, Pasxa oroli deb ham nomlanadi).

Kitob nashr etilgandan so'ng ko'p o'tmay, katta tortishuvlarga sabab bo'ldi. Ko'pchilik olimlar Diamondning Pasxa orolida sodir bo'lgan voqealar haqidagi nazariyasiga shubha bilan qarashdi. Ular ulkan daraxtlar 18-asrda yevropaliklar orolga birinchi bor kelishganida yo'q bo'lib ketganligiga qo'shilishdi, ammo Jared Diamondning yo'qolib ketish sabablari haqidagi nazariyasiga qo'shildilar.

Hozirda ikki olim, Karl Lipo va Terri Xant yangi nazariyani nashr etishdi. Ularning fikriga ko'ra, Polineziya kalamushlari daraxtlarning urug'ini yegan va shu bilan yangi daraxtlar o'sishiga to'sqinlik qilgan. Ularning fikriga ko'ra, kalamush tasodifan yoki ma'lum maqsadda Rapa Nui oroliga birinchi odamlar ko'chib kelgan kanoyelarda olib kelgingan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kalamushlar soni har 47 kunda ikki baravar ko'payishi mumkin. Bu boqish uchun juda ko'p kalamush. O'zlarining nazariyalarini qo'llab-quvvatlash uchun Lipo va Xunt kalamushlarning belgilarini ko'rsatuvchi palma kemirilgan yong'oqlarining qoldiqlariga ishora qilmoqdalar. Shubhasiz, ular Rapa Nuidagi o'rmonlarni yo'q qilishda odamlar ham muhim rol o'ynagan degan fikrga qo'shiladilar. Biroq, ular polineziya kalamushlari, ko'rib chiqilgan omillar orasida nisbatan ko'proq aybdor ekanligiga ishonadilar.

**Rapa Nui**

Savol 7/7

Yorliqlarning har birini bosish orqali o'ng tarafda keltirilgan uchta manbaga murojaat qiling. Savolga javobingizni yozing.

Uch manbani o'qib bo'lgach, Rapa Nuidagi katta daraxtlarning yo'q bo'lib ketishiga nima sabab bo'ldi deb o'ylaysiz? Javobingizni tasdiqlash uchun manbalardan aniq ma'lumotlarni taqdim eting.

ILMIY YANGILIKLAR

Polineziya kalamushlari Rapa Nuidagi daraxtlarni yo'q qildimi?

2005-yil Jared Diamond "Kollaps" kitobini nashr qildi. Ushbu kitobda u Rapa Nui aholisini tasvirlagan (shuningdek, Pasxa oroli deb ham nomlanadi).

Kitob nashr etilgandan so'ng ko'p o'tmay, katta tortishuvlarga sabab bo'ldi. Ko'pchilik olimlar Diamondning Pasxa orolida sodir bo'lgan voqealar haqidagi nazariyasiga shubha bilan qarashdi. Ular ulkan daraxtlar 18-asrda yevropaliklar orolga birinchi bor kelishganida yo'q bo'lib ketganligiga qo'shilishdi, ammo Jared Diamondning yo'qolib ketish sabablari haqidagi nazariyasiga qo'shildilar.

Hozirda ikki olim, Karl Lipo va Terri Xant yangi nazariyani nashr etishdi. Ularning fikriga ko'ra, Polineziya kalamushlari daraxtlarning urug'ini yegan va shu bilan yangi daraxtlar o'sishiga to'sqinlik qilgan. Ularning fikriga ko'ra, kalamush tasodifan yoki ma'lum maqsadda Rapa Nui oroliga birinchi odamlar ko'chib kelgan kanoyelarda olib kelgingan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kalamushlar soni har 47 kunda ikki baravar ko'payishi mumkin. Bu boqish uchun juda ko'p kalamush. O'zlarining nazariyalarini qo'llab-quvvatlash uchun Lipo va Xunt kalamushlarning belgilarini ko'rsatuvchi palma kemirilgan yong'oqlarining qoldiqlariga ishora qilmoqdalar. Shubhasiz, ular Rapa Nuidagi o'rmonlarni yo'q qilishda odamlar ham muhim rol o'ynagan degan fikrga qo'shiladilar. Biroq, ular polineziya kalamushlari, ko'rib chiqilgan omillar orasida nisbatan ko'proq aybdor ekanligiga ishonadilar.

XALQARO TADQIQOTLARDA O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASHINI BAHOLASH BO'YICHA



TOPSHIRIQLARDAN NAMUNALAR

PISA

KREATIV FIKRLASH

Axborotnomaning navbatdagi bo‘limi xalqaro PISA tadqiqotining yangi yo‘nalishi bo‘lgan kreativ fikrlashga oid topshiriqlar namunalarini taqdim etadi. Quyida kreativ fikrlash tushunchasi, uning dolzarbliji va o‘quvchilarni baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqoqtlardagi ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

OECD ning kreativ fikrlashga oid yo‘riqnomasida mazkur yo‘nalishga oid bir qancha tadqiqotlar olib borilgan va bu tushuncha Hennessey va Amabile kabi tadqiqotchi olimlarning ilmiy izlanishlariga ko‘ra: “dunyoning turli mintaqalarida insoniyat madaniyatini ravnaq topishiga jumladan, ular ilm-fan, falsafa, san‘at va gumanitar fanlarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi” deya ta’riflanadi. Shu bilan birga, kreativ fikrlash terminini tasavvurlarni ta’sirchan tarzda ifodalash, bilim olishni rag‘batlantiruvchi, original va samarali yechim topishga yo‘naltiruvchi g‘oyalarni shakllantirish, baholash va takomillalshtirishda faol ishtirok etish kompetensiyasi sifatida ta’riflaydi.

Xozirgi globallashuv zamonda kreativ fikrlash ta’limning barcha turi va barcha fan sohasida tahsil oluvchi o‘quvchilarning g‘oyalari yaratish jarayonida qay darajada ishtirok etishi, g‘oyalarning ahamiyati va yangiligini inobatga olib, ularga nisbatan o‘z munosabatlarini qay tartibda bildirishini va o‘zlari kutgan natijaga erishmagunga qadar g‘oyalarni yaratishda davom etishini yoritadi. Kreativ fikrlash endigina rivojlanib borayotgan soha bo‘lgani bois, kreativlikning keng, ammo mavhum tarzda shakllanganligi ustida qator tadqiqotlar qilingan. Plucker, Beghetto va Dow (2004[5]) kreativlikka nisbatan, uning ko‘p qirraliligi va ijtimoiy xususiyatidan kelib chiqib, “qobiliyat, jarayon va muhit orasidagi o‘zaro bog‘liqlik bo‘lib, uning yordamida guruh yoki inson ijtimoiy kontekstda yangicha va samarali mahsulot yaratadi” degan izoh beradi.

Mazkur topshiriqlar ba’zasi 1-sondagи axborotnomada keltirilgan topshiriqlar ba’zasining davomiyligi hisoblanib, bunda kreativ fikrlash yo‘nalishining kompetensiyaviy modelidagi ilmiy hamda ijtimoiy muammolarni hal qilish sohasiga oid topshiriqlaridan namunalar keltiriladi.

Ma’lumot uchun:

Xalqaro PISA tadqiqotlarida kreativ fikrlash yo‘nalishini baholash to‘rta faoliyat sohasiga oid bo‘lib bular: yozma ifodalash, vizual ifodalash, ilmiy hamda

ijtimoiy muammolarni hal qilish jumlasidandir.

- Yozma ifodalash sohasi ijodiy barkamollikni (kreativlikni) ifoda qilishning tabiiy vositasi hisoblanib o'quvchilardagi aqliy hamda muloqot qilish ko'nikmasini rivojlantirish uchun muhimdir

- Visual ifodalash sohasi kreativ fikrlash ko'nikmalarini ifoda qilishda o'quvchilar axborot uzatish vositalari, materiallar va jarayonlardan foydalanib, fikr-mulohazalari va tajribalarni kashf etadi, tajribada sinaydi va boshqalar bilan baham ko'radi

- Ijtimoiy muammolarni hal qilish sohasi kreativ fikrlashda o'quvchilar ning innovatsion ammo shu bilan birgalikda amaliy yechimlar taklif etadigan, emotsiyonal mazmunga ega g'oyalarni ilgari surish, andazalarni ajratish va ma'lum guruh ehtiyojlarini baholash va boshqalar fikriga xayrixohlik bildirish qobiliyatiga bog'liq

- Ilmiy muammolarni hal qilish sohasida kreativ fikrlash o'zini turli yo'l bilan namoyon etadi, masalan, ilmiy bilimni oshirishga yordam beradigan yangi g'oyalalar tushunchasida, farazlarni sinashda qo'llaniladigan tajribalar tushunchasida, amaliy qiziqishga ega bo'lgan ma'lum sohalarda qo'llaniladigan g'oyalalar yoki ixtiolar qilishda, yoki ilmiy va muhandislik uchun rejalar va loyihalarni yangidan joriy etilishida namoyon bo'ladi.

Mazkur baholash sohalari kreativ fikrlashning kompetentsiyaviy modeli asosida amalga oshirilib, bu kompetentsiyaviy model o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholash maqsadida uchta jihatga ajratiladi. Bular "turli g'oyalarni ilgari surish", "kreativ g'oyalarni ilgari surish" va "g'oyalarni baholash va takomillashtirish".

Turli g'oyalarni ilgari surish - insonning kreativ fikrlash qobiliyatini ko'rsatib beradigan asosiy mezon uning qanchalik ko'p g'oyalalar bera olishi bilan o'lchanadi. Darhaqiqat, fikran teranlik insonning ijodiy samaradorligini baholovchi ko'p qo'llaniladigan mezondir. Shunga qaramasdan, barchasi bir-biriga juda o'xshash bo'lgan bir necha mulohazalarni sodda shaklda ilgari surish bilan insonning kreativ fikrlash ko'nikmasini haqiqiy ko'rsatib beradigan omil o'sha g'oyalarning rang-barangligi yoki g'oyalarning o'zgaruvchanligi (moslashuvchanligi) va g'oyalarni ilgari surish jarayonida takroriylikdan qochish bilan bog'liqdir.

Kreativ g'oyalarni ilgari surish - kreativ g'oyalarni ilgari surish qismida asosan o'quvchilarning bo'limlar kesimida mos va o'ziga xos mulohazalarni topish qobiliyatlariga e'tibor qaratiladi (masalan, hikoyada ilgari surilgan asosiy

g‘oyasi, fikr va mulohazalarni visual ko‘rinishda ifoda qilish yoki ijtimoiy yoki ilmiy muammoga original (ijodkorona) yechim topish va shu kabilar). Boshqacha aytganda, o‘quvchilardan boshqalarning hayoliga kelmagan mos va topshiriqqa tegishli javob topish so‘raladi. Moslik yoki muvofiqlik degani shuni anglatadiki, berilgan javob topshiriqning asosiy shartlariga (talablariga) mos bo‘lishi, (agar berilgan bo‘lsa) topshiriqqa qo‘yilgan cheklovlarni inobatga olib va javobning yaroqlilagini aks ettirishni anglatadi.

G‘oyalarni baholash va takomillashtirish - samarali tarzda kreativ fikrlash ko‘nikmasi odatdagidan ajralib turadigan qandaydir yangilik yaratish bilan xarakterlanmaydi, balki kutilgan natijani beradigan nimadir yaratish va hayratlanarli samara beradigan ijodiy faoliyat hisoblanadi. Bunday fikrlash jarayonlari g‘oyalardagi kamchiliklarni bartaraf etadi va odatda, yangidan boshqa g‘oyalar yaratishga ko‘maklashadi yoki ijodiy natijani yaxshilash uchun birlamchi g‘oyalarni qaytadan shakllantiradi. Baholash va takomillashtirish jihatni kreativ fikrlash jarayonining asosi hisoblanadi. Boshqalar tomonidan berilgan g‘oyalarning kamchiliklari va afzalliklarini aniqlash qobiliyati bilim hosil qilishda jamoa bo‘lib ishslashning asosiy qismi hisoblanadi.

TOPSHIRIQLARDAN NAMUNALAR

KELAJAK VELOSIPEDI

(kreativ fikrlashda ilmiy muammolarni hal qilish faoliyat sohasiga oid topshiriq namunasi)

Mazkur topshiriq xalqaro PISA dasturining kreativ fikrlash yo‘nalishidagi ilmiy muammolarni hal qilish sohasiga oiddir. Topshiriqlar guruhi uchta topshiriqdan iborat bo‘lib, ularning har biri kompetentlik modeliga binoan kreativ fikrlashning uchta jihatlaridan ikkitasi, ya’ni “turli xil g‘oyalarni ilgari surish” hamda “g‘oyalarni baholash va takomillashtirish” haqida ma’lumot berishga yo‘naltirilgandir.

Quyidagi topshiriqda o‘quvchilardan standart velosipedga o‘ziga xos o‘zgartirish kiritish so‘raladi va bu o‘quvchilarga yanada kreativ bo‘lishga imkon beradi, chunki unda yopiq turdagi muammolarning oddiy yechimlarini topishdan ko‘ra, ochiq turdagi muammoga yechimlar topish talab etiladi.

PISA Kreativ fikrlash topshiriq namunalari

Ilmiy muammoni kreativ hal qilish

Topshiriq 1/3

“Kelajak velosipedi”ni ko‘z oldingizga keltirishga harakat qiling. Oddiy velosiped dizaynnini takomillashtirish bo‘yicha uch xil g‘oya taklif eting. Taklif etilgan g‘oyalarингiz bir-biridan farq qilsin.

Har bir taklif etilgan fikr amalda qanday ishlashi va uni amalga oshirishda qanday usul yoki vositalardan foydalanishingizni tushuntiring.

Sizga ushbu topshiriq uchun 5 daqiqadan ortiq vaqt sarflamasligingizni tavsiya etamiz.

1-takomillashtirish

2-takomillashtirish

3-takomillashtirish

KELAJAK VELOSIPEDI



Yuqoridagi xalqaro PISA testi ekranini namoyon etuvchi platformalar namunalaridagi 1/3-topshirig'i o'quvchining turli g'oyalarni ilgari surish kompetentsiyasini baholaydi.

Platforma namunasining chap tomonida topshiriq hamda topshiriq javobini kiritish uchun 3 ta katakchalar berilgan. O'ng tomonda esa o'quvchilar tassavurini yoritish maqsadida topshiriqga oid velosiped rasmi taqdim etilgan.

Topshiriq ko'rsatmasiga binoan, o'quvchi mazkur "Kelajak velosipedi"ni yaratish maqsadida oddiy velosipedga uchta o'zgartirishning innovatsion usulini keltirib chap tomondagi topshiriq ostida uchta katakchada tavsiflashlari so'raladi. Ushbu topshiriqda o'quvchilarning kompetentlik modelining "turli g'oyalarni ilgari surish" jihatiga oid ma'lumotlar to'planadi. Agar o'quvchi tomonidan taklif etilgan g'oyada velosipedning boshqa harakatlantiruvchi qismlarini saqlab qolgan holda unga kiritilgan uchala o'zgartirishlar o'zining originalligi bilan ajralib tursa, o'quvchi tomonidan berilgan javob varianti topshiriq shartiga

PISA Kreativ fikrlash topshiriq namunalari



Ilmiy muammoni kreativ hal qilish

Topshiriq 2/3

Do'stingiz kelajakda yaratiladigan yuqori texnologik velosipedlar qimmat bo'lishi mumkinligini aytib, ularning o'g'irlab ketilishining oldini oluvchi choralarни o'ylab topish kerakligini aytdi. U velosiped tutqichiga mahkamlanadigan moslama yordamida inson yuzini tanib olishga dasturlangan kamera o'rnatishni taklif etdi. Agar biror kim velosipeddan foydalansa, o'rnatilgan kamera velosiped egasining mobil telefoniga ma'lumotlarni jo'natadi.

Do'stingizga velosiped o'g'rilingining oldini olishga imkon beruvchi takomillashtirish g'oyasini taklif eting.

Takomillashtirishhaqida fikr quyidagi katakcha ichiga yozing.

Takomillashtirish

Matn

KELAJAK VELOSIPEDI

Velosiped o'g'rilingini kamaytirish uchun do'stingizning g'oyasi

Yuzni tanib olishga dasturlangan kamera



Velosiped turqichi uchun kamera o'rnatish qurilmasi




Ilmiy muammoni kreativ hal qilish
 Topshiriq 3/3

Kelajak velosipedi avtomat ravishda harakatga keltiriladi va uning pedallaridan foydalanishga ehtiyoj bo'lmaydi. Velosiped pedalidan qayta foydalanish yoki boshqa maqsadli foydalanishning o'ziga xos usulini taklif eting.

Taklif etilgan g'oya o'ziga xos bo'lishi va boshqa o'quvchilar u haqida o'ylab ko'rmagan bo'lishi lozim.

Sizga ushbu topshiriq uchun 5 daqiqadan ortiq vaqt sarflamasligingizni tavsiya etamiz.

G'oya

KELAJAK VELOSIPEDI


nisbatan muvofiq javob sifatida qabul qilinadi. Kodlovchi ekspertlar topshiriqni baholash jarayonida o'quvchilarning berilgan topshiriq bilan avvaldan tanishlik darajasini kamaytirish maqsadida, yuqorida aytib o'tilgan muvofiqlik mezonidan tashqari, ular tomonidan berilgan javob variantlarining samaradorlik va ta'sirchanlik darajasini inobatga olmaydi. Taklif etilgan g'oyalarni o'ziga xos (original) bo'lishi uchun o'quvchilar oddiy velosipedga turlicha o'zgartirishlar kiritishlari kerak, masalan, uning turli qismlarini almashtirish orqali kiritilgan o'zgarishlarni yozishlari talab etiladi.

Mazkur topshiriqni bajarish uchun o'quvchiga 5 daqiqadan ortiq vaqt sarflamasligi tavsiya etiladi.

